

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH
FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI

Namangan -2014 yil

“Soliqlar va soliqqa tortish” fanidan ma’ruzalar manti bakalavriatning noiqtisodiy ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan.

Tuzuvchi: Namangan davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası
o’qituvchisi **Z.Abdullayev**

Taqrizchilar: Namangan davlat universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrası
katta o’qituvchisi i.f.n **K.Sirojiddinov**

Namangan davlat universiteti
“Geografiya va ekologiya asoslari” kafedrası
dotsenti, g.f.n. **A.Baratov**

Ma’ruzalar manti Namangan Davlat Universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasining 2014 yil “27” avgustdagi 1-sonli majlisida muhokama etilgan va tasdiqlangan.

“Iqtisodiyot” kafedrası mudiri: i.f.n. **N.Sotvoldiev**

Ma’ruzalar manti Namangan Davlat Universitetining Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti ilmiy kengashining 2014 yil “28” avdustdagi 1-sonli majlisida muhokama etildi va ma’qullandi.

Fakultet kengashi raisi: t.f.n **N.Dehqonov**

KIRISH

O'zbekiston xalqining mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishi mamlakatimizda rivojlanishning butunlay samarali, jahondagi ilg'or mamlakatlarning andozasiga mos bo'lgan yangi, keng ufqlarini ochib berdi.

Istiqloq yillarida yurtimizda bozor infratuzilmasini shakllantirish, mulkiy munosabatlarni yangicha asoslarga olib o'tish, iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, aholini ijtimoiy jihatdan himoyalash kabi juda ko'lab masalalarni hal etishning yo'llari tanlab olindi va erkin iqtisodiy faoliyatning qonuniy asoslari yaratildi.

Ayniqsa hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda iqtisodiyotning real sektori korxonalari hamda bank, moliya, soliq kabi hal qiluvchi sohalarida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish aksil inqiroziy choralar bo'lib hisoblanadi. prezidentimiz tahkidlab o'tganlaridek, «Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga tahsiri, undan ko'riladigan zararning darajasi va ko'lami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q».

Shu nuqtai nazardan inqiroz sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, xususiy tadbirkorlarga soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar, yengilliklar, preferentsiyalar berilishi ular faoliyatini kengaytirishga imkon yaratadi.

Ammo mazkur berilayotgan imtiyozlar zamirida har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun o'ta mashuliyatli soliq munosabatlari turganligini esdan chiqarmaslik kerak. Chunki imtiyozlar aynan shu faoliyatni takomillashtirishga, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga, hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarishni kengaytirishga turtki bo'lishi kerak.

Zero, ichki bozorni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uni o'zimizda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan milliy hunarmandchilik buyumlari bilan tahminlash, aholi ehtiyoji uchun zarur mahsulotlarni yaratish jahon miqyosida davom etayotgan iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etishda muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Boshqalarning qo'lga qarab qolmaslik uchun har bir shahar va qishloqda yurtimiz ravnaqi uchun mahsulotlar ishlab chiqaruvchi ijodkorlar, yaratuvchilar soni ko'ayishi kerak, Chunki hunarmandchilik bu zahiradagi boylikdir. Uning imkoniyatlaridan to'g'ri, oqilona foydalansak, ular yaratgan mahsulotlar bilan dunyoga chiqishimiz mumkin. Bu byudjetimizga katta miqdorda valyuta oqimlari kelishiga sabab bo'ladi, ichki bozorni to'laqonli faoliyat yuritishi uchun muhim manba bo'lib qoladi.

1-MAVZU. SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH MAXSUS KURSINI O'QITISHNING ZARURLIGI, MAQSADI VA VAZIFALARI. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

1.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 1 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Kursning noiqtisodiy ta'lim yo'nalishida o'qitishning ahamiyati va vazifalari 2. Soliqlarni va soliq munosabatlarini ppaydo bo'lishi 3. Soliqlarning mohiyati 4. Soliqqa tortish tamoyillari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: kursning noiqtisodiy ta'lim yo'nalishida o'qitishning ahamiyati va vazifalarini tavsiflash, soliqlarni va soliq munosabatlarini ppaydo bo'lishini aniqlash, soliqlarning mohiyatini o'rganish, soliqqa tortish tamoyillarini tushuntirish	
pedagogik vazifalar: • kursning noiqtisodiy ta'lim yo'nalishida o'qitishning ahamiyati va vazifalarini tushuntiradi; • soliqlarni va soliq munosabatlarini ppaydo bo'lish sabablarini aniqlaydi; • soliqlarning mohiyatini ochib beradi; • soliqqa tortish tamoyillarini tasvirlaydi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • noiqtisodiy ta'lim yo'nalishida mazkur kursni o'qitishning ahamiyati va vazifalarini tushunib oladi; • soliqlar va soliq munosabatlarini ppaydo bo'lish sabablarini bilib oladi; • soliqlarning mohiyatini tushuntiradi; • soliqqa tortish tamoyillarini tavsiflaydi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (30 min)	2.1. Mavzuni yoritishda muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. Kursning noiqtisodiy ta'lim yo'nalishida o'qitishning ahamiyati va vazifalarini tushuntirib beradi. 2.3. Soliqlarni va soliq munosabatlarini paydo bo'lish sabablarini yoritib beradi. 2.4. Soliqlarning mohiyati va mazmunini ochib beradi. 2.5. Soliqqa tortish tamoyillarini tavsiflab beradi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (30 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlarini aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

1.3. O'quv materiallari

1. Kursning noiqtisodiy ta'lim yo'nalishida o'qitishning ahamiyati va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va soliqqa tortish masalalari iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Bu bosqichda soliqqa oid munosabatlarni yanada kengroq va chuqurroq o'rganishga nisbatan talablar kuchayadi. Chunki har birimiz, qaysi kasbda ishlashimizdan qat'iy nazar, soliq to'lovlarini amalga oshiramiz.

651 yiddan boshlab hozirgi Markaziy Osiyo hududida arablarning hukmronligi o'rnatilgandan so'ng soliqqa tortish birmuncha takomillashdi va soliqlarning turli xillari paydo bo'ldi.

Masalan, xayr-ehson ehtiyojlari uchun soliq – zakot. Ijtimoiy keskinlikni yumshatish uchun mo'ljallangan, kambag'allar, yetimlar va yo'lovchilarga xayr-ehson berishda foydalanilgan. Bundan tashqari, quyidagi soliqlar mavjud bo'lgan:

1. Vazifa - o'l'on;
2. Juzya — jon solig'i;
3. Xiroj - yer solig'i;

Soliq hajmi shartnoma bo'yicha belgilangan. Juzyani hisoblashda o'ziga to'qlik darajasi ehtiborga olingan, soliq pul va natura bilan undirilgan.

CHorvadorlardan (chorva tuyog'iga qarab naturada), hunarmand va savdogarlardan (agar soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdordan oshib ketgan muayyan yillik daromad mavjud bo'lganida) soliqlar undirilgan.

Foydali qazilmalardan foydalanishdan olingan daromad soliqlari, majburiy ishlab berish — kanallar qazish va ularni tozalash, yangi yo'llar qurish va eskilarini tuzatish, ko'riklar qurish, shahar va qal'ha devorlarini bar'o etish hamda mustahkamlash kabi soliqlar ham mavjud bo'lgan.

Aholini o'z diniga jalb etish va mahalliy dehqonlarning islom diniga o'tishini tezlashtirish maqsadida arablar islom diniga yangi kirgan kishilarga turli imtiyozlar bera boshladilar, jumladan ularni asosiy soliqlardan (xiroj va juzyadan) ozod qilganlar.

Markaziy hokimiyatni mustahkamlagan va qudratli qo'shin tashkil etgan Buxoro hokimi Somoniylar sulolasidan bo'lmish Ismoil ibn Ahmad (892-907 yy.) o'z vorislariga ichki boshqaruv ishlari bilan shug'ullanish imkonini berdi. Qishloq xo'jaligi, kon ishi va hunarmandchilikni rivojlantirish, karvon savdosini kengaytirish, muvaffaqiyatli soliq siyosati — bularning bari mamlakatni musulmon olamida birinchi o'rinlardan biriga chiqardi. SHu davrdan boshlab yer yirik zamindorlar mulki bo'lib, dehqonchilik esa yirik, zamindorlik institutiga aylana boshladi.

Demak, tarixiy tajriba va Markaziy Osiyo hududida qabul qilingan soliqqa tortish tizimini diqqat bilan o'rganish soliq islohotlarini shakllanish va rivojlanish jarayonini tahlil qilishga imkon beradi, xatolardan ogohlantiradi, kutilayotgan soliq miqdorini aniqlash usullarini o'rgatadi.

Soliqlar, tarix ko'rsatganidek, xalq xo'jaligining u yoki bu tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantirish, uni modernizatsiyalash maqsadida, tovar ishlab chiqaruvchilarning o'ziga, shuningdek investorlarga imtiyozlar berish yo'li bilan davlatning tovar ishlab chiqaruvchilarga tahsir etish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Bu aynan hozirgi bosqichda jahon-moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda, inqirozga qarshi 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturini hayotga tadbqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Soliqlarning mohiyati

Soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi.

Uning majburiyligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida asoslangan bo'lib, 51-moddasida ***«Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar»*** deb ko'rsatib o'tilgan.

Soliqlar – muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda - davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatta molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Shuningdek, soliq munosabatlari mavjud bo'lgan joyda ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi sub'ektlar ham harakat qiladi. Bular eng avvalo, soliq to'lovchilar bo'lib, zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy va yuridik shaxslar bo'lib hisoblanadi. SHu bilan birga soliq agentlari ham harakat qiladi.

Soliq agentlari — zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Soliqqa tortish sub'ektlari va ob'ektlarining to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini tahminlash maqsadida davlat soliq xizmati organlarida uchastka soliq ins'ektorlari lavozimi tashkil etilgan. Uchastkalarining chegaralari, shuningdek uchastka soliq ins'ektorlarini soni O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan normativlar bo'yicha belgilanadi.

Uchastka soliq ins'ektorlari o'zlariga biriktirilgan uchastkada mol-mulk solig'i va yer solig'i to'lovchi jismoniy shaxslarni, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarni hisobga olish yuzasidan tegishli ishlarni bajaradilar hamda tegishli soliqlarni o'z vaqtida byudjetga o'tkazilishini nazorat qiladilar.

Uchastka soliq ins'ektori soliq tizimini xalqqa eng yaqin turadigan bo'g'ini hisoblanadi. U soliq idoralari bilan omma o'rtasidagi bog'lovchi xalqadir. Ular mahalliy byudjetga tushadigan asosiy soliqlarni jamlanishini tahminlaydi.

Demak, soliq to'lovlari bilan bog'liq masalalar iqtisodiy munosabatlarda alohida o'rin tutadi. Rejali iqtisodiyotda soliq to'lovchi tushunchasi chuqur mahnoga ega emas edi. Faqatgina bozor iqtisodiyoti amaliyotga qonuniy tarzda faoliyat ko'rsatuvchi «soliq to'lovchi» tushunchasini olib kirdi. Endilikda soliq to'lovchi erkin jamiyatda yuksak mavqega ega bo'lgan shaxs. Uning ijtimoiy-iqtisodiy holati soliq to'lovlarini to'laqonli amalga oshirishga imkon beradi. Chunki soliqlar soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyatiga mos holda belgilanadi. U faoliyat yurituvchilarning harakati natijasida yuzaga kelgan daromadlarga dahvogar bo'lib hisoblanadi. Dahvogar soliq undiruvchi sifatida, daromad, mulk egalari esa soliq to'lovchi sifatida maydonga chiqadi.

Demak, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, mudofaa kabi vazifalarini samarali tarzda amalga oshirishda moliya-byudjet tizimining muhim «**qon arteriyasi**» soliq bo'lib hisoblanadi.

SHunga ko'ra, jamiyat foydasi uchun davlat tomonidan yal'i ichki mahsulotning bir qismini majburiy to'lovlar shaklida undirilishi soliqlarni mohiyatini aks ettiradi.

4. Soliqqa tortish tamoyillari

Soliqlarning mohiyatini to'laqonli anglash uchun soliqqa tortish tamoyillariga ehtibor qaratish lozim. Aynan tarixiy shaxslar, yahni Amir Temur, Adam Smit va hozirgi zamon iqtisodchilari ishlab chiqqan soliqqa tortish tamoyillari O'zbekistonda soliq qonunchiligi asoslarini ishlab chiqishda muhim manba bo'ldi.

Xususan, Amir Temur soliq siyosatining asosiy tamoyillari «Tuzuklar»da - uning o'z farzandlariga qoldirgan siyosiy vasiyatida keltirilgan. **«Soliqlarni yig'ishda xalqni soliqlar bilan ezib qo'yishdan yoki viloyatlarni xonavayron qilishdan ehtiyot bo'lish zarur, zero, xalqning xonavayron bo'lishi davlat xazinasining qashshoqlanishiga olib keladi, xazinaning nochorligi oqibatida esa xarbiy kuchlar parokanda bo'lib, bu esa o'z navbatida hokimiyatni zaiflashtiradi», «Qonunni ishlab chiqishda, - deb hisoblardi, Temur, - avvalo xalqning manfaatlarini hisobga olish, uning to'lovga qobilligidan kelib chiqish zarur»**. SHuningdek, soliqlarni hisoblash qoidalari mavjud bo'lib, u yerning unumdorligi va tegishli ravishda belgilangan baholarga muvofiq belgilangan.

Yangi yerlar o'zlashtirilishini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari ham qo'llanilgan. Temurning ko'rsatmasiga binoan soliq undirish insoniy ruhda bo'lib, faqat g'alla xosili o'rib olingandan so'ng o'l'on yig'ilgan. Bu to'la mahnoda tenglik va adolat tamoyiliga mos keladi.

Yangi yerlar o'zlashtirilishini rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari ham qo'llanilgan. «Bo'z yerga ishlov bergan va uni sug'organ, unga ko'chatlar ekkan yoki qarovsiz yerlarni ekin uchun yaroqli qilgan dehqon birinchi yili soliqlardan ozod qilingan; ikkinchi yili u o'zi qancha xohlasa, shuncha soliq to'lagan, uchinchi yili esa soliqlar to'g'risidagi umumiy qonunga bo'ysungan».

Temur o'z hayotining oxirida butun dunyo uchun yagona soliq tizimi bo'lishi mumkin emas degan xulosaga keldi, Albatta, islom diniga katta ehtiqod qo'ygani uchun u shariat tavsiyalari tarafdori edi.

Temur soliq a'ratini tashkil etishga ham ehtibor berdi. Okruglar, viloyatlar va mamlakatlarning bir qismi ularning ilgarigi sohiblari, Temurning amirlari, o'g'il va nevaralariga suyurg'ol qilib, yahni aholisidan davlat soliqlari va o'l'onlarini undirish huquqi bilan umrbod egalik qilish va boshqarishga berildi. Ushbu soliq va o'l'onlar butunlay yoki qisman suyurg'ol egasining foydasiga hisoblangan.

Temurning ko'rsatmasiga ko'ra, yuqorida tahkidlanganidek soliqni undirish usullari insoniy ruhda bo'lishi kerak edi. «G'allani yig'ib olishdan avval o'l'on yig'ish man qilingan, u belgilangan uch muddatda to'langan. Agar fuqarolar ishtiyoq bilan to'lasalar, soliq yig'uvchiga hojat bo'lmagan; agar ehtiyoj tug'ilsa, davlat o'l'onini yig'ish uchun so'z va obro'sidan foydalanib harakat qilishi kerak, lekin hech qachon tayoq, arqon, qamchi yoki zanjirdan foydalanmasin;

umuman olganda, u qarzdor shaxsiga qarshi qaratilgan shafqatsiz choralarni qo'llash huquqiga ega emas. O'l'nlarni yig'ayotganda qo'rqitish va dag'dag'alardan muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin, lekin urish va qamchidan foydalanmaslik kerak. Obro'-nufuzi qamchi va darradan zaif bo'lgan hokim o'z o'rniga nomunosib» deb hisoblagan.

Keyinchalik XVIII asrga kelib ingliz klassik burjua siyosiy iqtisodchisi A. Smit (1723-1790 yillar) o'zining «Xalqlar boyligini tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» asarida soliqqa tortishning tamoyillarini ishlab chiqdi. Jahon iqtisod ilmining vakillari soliqqa tortish tamoyillarini Adam Smit nomi bilan bog'lasalarda, bizning bobomiz Amir Temur undan bir necha asr avval soliq tamoyillariga asos solganligini ko'ramiz. Faqatgina A.Temur uni guruhlangan holda yahni yagona tizim sifatida yaratmagan, xolos.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimi asoslarini yaratish jarayonida A.Temur tuzuklari, A.Smitning hamda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan soliq tamoyillaridan foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 5-moddasida Respublikamizda amal qilayotgan soliq solishning tamoyillari ko'rsatib o'tilgan (1-chizma).

(1-chizma)

O'zbekistonda soliqqa tortish tamoyillari

O'zbekistonda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining tamoyillari	→	Majburiylik	→	Har bir shaxs soliq kodeksida belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart. H yey kimning zimmasiga Soliq kodeksida nazarda tutilmagan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.
	→	Aniqlik	→	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qachon, qancha miqdorda, qay tartibda to'lashi kerakligini aniq bilsin.
	→	Adolatlilik	→	Soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat printsi'lariga mos kelishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.
	→	Yagonalik	→	Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilariga nisbatan yagonadir. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovar (ish, xizmat)larning yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmadi.
	→	Oshkoralik	→	Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda ehlon qilinishi shart.
	→	Soliq to'lovchi haqligi prezum'tsiyasi	→	Soliqlar qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

2-MAVZU. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI VA SOLIQ MUNOSABATLARI SUB'EKTLARINING HUQUQ HAMDA MAJBURIYATLARI

2.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 1 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Soliq tizimi haqida tushuncha 2. Soliq to'lash usullari hamda soliqlarni tavsiflash 3. O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar 4. Soliq siyosatining mohiyati va vazifalari 5. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi haqida bilimlar berish, soliq munosabatlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini o'rgatish.	
pedagogik vazifalar: • O'zbekiston Respublikasining soliq tizimini tushuntiradi; • soliq to'lash usullari hamda soliqlarni tavsiflaydi; • O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni aniqlaydi; • soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini sanab beradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • O'zbekiston Respublikasining soliq tizimini bilib oladi; • soliq to'lash usullari hamda soliqlarni tavsiflaydi; • O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni farqlaydi; • soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini o'rganib oladi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

2.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (30 min)	2.1. Soliq tizimi haqida tushuncha beradi; 2.2. Soliq to'lash usullari hamda soliqlarni tavsiflab beradi; 2.3. O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar farqlab beradi; 2.4. Soliq siyosatining mohiyati va vazifalarini tushuntiradi; 2.5. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari bayon etadi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (30 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlari aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

2.3. O'quv materiallari

1. Soliq tizimi haqida tushuncha

Tizim - bu yig'ma tushuncha bo'lib, amaldagi soliqlarning o'zaro bir-biri bilan bog'liqligini ifoda etadi. Tizim orqali mamlakatda amal qilayotgan barcha soliq va boshqa majburiy to'lovlar yaxlit anglanadi. Xususan, O'zbekistondagi mavjud soliq va boshqa majburiy to'lovlarning har biri o'z yo'nalishi bo'yicha ma'lum harakatni amalga oshirib byudjetning daromadlar qismini shakllantirishga hissa qo'shsa, ular umumlashgan tarzda soliq tizimini tashkil etadi va mamlakat

miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishga hissa qo'shadi.

Soliq tizimi - aniq bir mamlakatda ma'lum davrda mavjud bo'lgan soliqqa tortish sharoitlarining yig'indisidir. Soliq tizimining harakat mexanizmi samarali bo'lishi uchun, albatta, zarur shart-sharoitlar, ya'ni «soliq muhiti» yaratilishi lozim.

Soliq tizimining harakati soliq mexanizmi orqali amalga oshadi. Soliq mexanizmi sub'ektiv, ya'ni bevosita inson yaratmagan, ammo uning aql-zakovati bilan harakatga keluvchi voqelik bo'lib, amaliyotda barcha soliqlarning harakatini tahminlovchi tushunchalar majmuasidir.

Demak, **soliq mexanizmi — bu soliq solish amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan, soliqlarni hayotga tadbqiq etishda bevosita ishtirok etuvchi tushunchalar yig'indisidir.** Har bir soliq mexanizmining elementi o'zining alohida, qonunlar bilan rasmiylashtirilgan funktsional vazifalariga ega. SHu sababli soliq elementining har biri alohida tarzda olib qaralganda soliq tizimining u yoki bu tomoni mohiyatini ochib beradi. Umumlashgan tarzda esa harakat mexanizmiga aylanadi va soliq qonunchiligini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Soliq tizimi o'zining harakatini amalga oshirishda iqtisodiy-huquqiy elementlar bilan bog'liq holda ish ko'radi. SHu sababli soliq munosabatlarida ishtirok etuvchi elementlarni aniqlashtirib olish muhimdir. Jahon soliq amaliyotida soliq tizimining huquqiy-iqtisodiy elementlari sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- soliq qonunchiligi;
- soliq mahmuriyati;
- soliq to'lovchi.

Soliq qonunchiligi mazkur tizimning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Chunki soliq tizimining «bino»sini shakllantirish uchun mustahkam, keng tahlilli huquqiy «poydevor» yaratilishi kerak.

Soliq qonunchiligining huquqiy bazasi Soliq kodeksi hamda Davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonunda ham o'z aksini to'gan.

Soliq qonunchiligi talablarini hayotga tadbqiq etuvchi huquqiy idora soliq mahmuriyati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonunining 1-moddasiga ko'ra **«Davlat soliq xizmati organlari soliqlar, yig'implar va boshqa to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida byudjetga tushishini tahminlash maqsadlarida tuziladi»** deb ta'kidlangan.

Soliq to'lovchi soliq amaliyotida markaziy figura bo'lib, soliq to'lovlarini amalga oshiruvchi shaxs hisoblanadi. Soliq qonunchiligini hayotga tadbqiq etish eng avvalo aynan mazkur sub'ektlarga bog'liq. Chunki soliq davlat bilan soliq to'lovchi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni soddalashtirish vositasidir. Soliq qonunchiligi soliq to'lovchiga uning huquq, burchlari va majburiyatlarini ko'rsatib beradi.

SHu narsaga ehtibor berish kerakki, soliq to'lovchi bu aynan fuqaro emas, balki mulk egasi hisoblanadi. Soliq to'lash - ijtimoiy majburiyat bo'lib, xususiy mulkchilik huquqini hayotga tadbqiq etishdan kelib chiqadi. Soliq to'lash mexanizmi orqali xususiy mulk vakillari mulkchilik mohiyatini hayotga tadbqiq etadi. Soliq to'lash yo'li bilan xususiy mulk jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladi.

O'zbekistonning soliqqa tortish tizimi o'z mazmuniga ko'ra soliq elementlari, ularni tashkil etish tamoyillari va usullarini o'z ichiga oladi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlar elementlariga soliq solish ob'ekti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish na to'lash tartibi kabilar kiradi (2-chizma).

2. Soliq to'lash usullari hamda soliqlarni tavsiflash

Soliq amaliyotida soliq to'lash usullari alohida o'rin tutadi va har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt hamda fuqaro ular haqida tegishli ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bizning soliq tizimimizda soliq undirishning 3 ta usuli mavjud.

- 1) Daromad manbalari asosida soliq to'lash;
- 2) Deklaratsiya asosida soliq to'lash;
- 3) Kadastrli soliq undirish.

Daromad manbalari orqali soliq undirish bevosita korxona va tashkilotlar, fuqarolar, barcha harakatdagi sub'ektlar tomonidan olingan daromaddan qonunchilikda belgilangan tartibga asosan soliq undirishdir.

Bu soliqni jismoniy shaxslardan undirilganda to'lov ishlayotgan xodimning ish haqidan avtomatik tarzda, ish haqi berilmasdan avval ushlab qolinadi. Shu sababli, bu soliqni to'lashdan bo'yin tovlash istisno etiladi. Bu soliq soliq idorasida emas, balki xodim faoliyat yuritayotgan joyda

hisoblab, ushlab qolinadi va byudjetga o'tkaziladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar elementlari

(2-chizma)

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar elementlari	→	Soliq soliq ob'ekti	→	Soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lovlar hisoblab chiqarilishi va to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.
	→	Soliq solinadigan baza	→	Soliq solish ob'ektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqat belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarni ifodalaydi.
	→	Stavka	→	Soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutloq summadagi miqdorni ifodalaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori bilan belgilanadi.
	→	Hisoblab chiqarish tartibi	→	Soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek, imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozdan kelib chiqib soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Hisoblash chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin.
	→	Soliq davri	→	Soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, uning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lanishi lozim bo'lgan summalarni to'lash majburiyati yuzaga keladi.
	→	Soliq hisobotini taqdim etish tartibi	→	1) shaxsan olib borib berish tartibi; 2) pochta orqali buyurtma xat bilan; 3) elektron hujjat tarzida.
	→	To'lash tartibi	→	A) asosiy summa; B) hisoblangan penya; V) jarimalar.

Deklaratsiya asosida soliq undirish qo'shimcha manbalar olingandan so'ng, ikki va undan ortiq manbalardan daromad to'lganda to'lanadigan soliq shaklidir. Bunda yil davomida olingan barcha daromadlar umumlashtirilib, harajatlar hisob-kitobi yuritilgan hamda imtiyozlar qo'llanilgan holda soliq to'lash amaliyotidir.

Kadastrli - soliqlarni hisoblash uchun foydalaniladigan ob'ektlar (er, bino, inshootlar)ning bahosi va o'rtacha daromadliligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan kadastr yoki reestrda foydalaniladi.

Soliqlarni muayyan xarakterli belgilari, yahni ularni undirish usullari, qo'llaniladigan stavkalari turi, soliq imtiyozlari va hokazolar bo'yicha guruhlash soliqlarni tavsiflash hisoblanadi.

Soliqlarni turlari bo'yicha tavsiflash uchun bir necha belgilar asos qilib olingan. Xalqaro amaliyotda ikkita asosiy tavsif guruhlari qabul qilingan bo'lib, bular **bevosita va bilvosita soliqlardir** (3-chizma).

Soliq amaliyotida soliq to'lovchilar shakllanish nuqtai nazaridan yuridik va jismoniy shaxslarga bo'linadilar.

O'z mulkida, xo'jalik yuritishda alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansga, smetaga

ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy xuquqlarga ega hamda ularni amalga oshiradigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda dahvogar va javobgar bo'la oladigan, O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga muvofiq tashkil etilgan tashkilot yuridik shaxs sifatida ehtirolf etiladi. Yuridik shaxslarga korxona va tashkilotlar, yuridik maqomga ega bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb yuritiladi.

Soliqlarni turlari bo'yicha tavsiflash

3-chizma

Soliqlar iqtisodit mohiyatiga ko'ra	
To'g'ri (bevosita)	Egri (bilvosita)
Bevosata daromadga, mulkka yo'naltirilgan soliq bo'lib,	Iste'molga solingan soliq bo'lib, u ishlab chiqarilgan tovarlar, ishlar, xizmatlar qiymatiga ustama tarzida qo'yiladi
U moddiy ne'matlarni qo'lga kiritish va jamg'arish jarayonida undiriladi.	U yaratilgan mahsulotni va jamg'armalarni sarflash jarayonida undiriladi.
Ularga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i kabilar kiradi.	Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i, yer qaridan foydalanuvchilar uchun soliq kabilar kiradi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlar asosan aholi tomonidan to'lanadigan mol-mulk, yer, daromad soliqlaridir.

Shuningdek, soliqlar byudjetga yo'naltirilishiga qarab umumbelgilangan soliqlar hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga ajraydi.

3. O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar

O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aktsiz solig'i;
- 5) yer qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizelg' yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:
 - a) yagona ijtimoiy to'lov;
 - b) fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
 - v) byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar.
- 2) respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:
 - a) respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
 - b) respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar.
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlari;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Respublika soliq amaliyotida keyingi yillarda soddalashtirilgan soliq to'lovlari qo'llanila boshlandi. Bu soliq to'lovchilar uchun bir qancha qulayliklar hamda imtiyozlar taqdim etmokda.

Soddalashtirilgan tartibda to'lanadigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

- yagona soliq to'lovi;
- yagona yer solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

4. Soliq siyosatining mohiyati va vazifalari

Soliq siyosati ma'lum davrda mamlakat oldida turgan ustuvor masalalarni birinchi navbatda hal etishga yo'naltiriladi. Zamonaviy soliq siyosatida mamlakatimiz soliq tizimi oldida turgan va hal etilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlar quyidagilardir:

1) mamlakat ahamiyatiga molik dolzarb vazifalarni hal etish uchun zarur moliyaviy mablag'larni shakllantirish;

2) mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, yahni ularda madaniylashgan bozor munosabatlariga kirib borish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berish, soliq og'irligini oshirib yubormaslik;

3) bozor mexanizmining muhim unsuri bo'lgan infratuzilmani tarkib to'tirish va aholini soliqlar bo'yicha manfaatlarini ifoda etish;

4) eng muhimi ijtimoiy vazifani hal etish, yahni aholining turmush darajasi pasayib ketishishga yo'l qo'ymaslik;

5) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda uni rivojlanishi uchun ijtimoiy muhit yaratish hamda ko'maklashish;

6) chet el investitsiyalarini jalb etish yo'li bilan ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, xorijiy mamlakatlarning ilmiy-texnika yutuqlari va texnologiyasidan, ilg'or tajribalaridan maqsadli foydalanish kabilardir.

Soliqlarning zarurligi davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy vazifalarni moliyaviy mablag'lar bilan tahminlashdan kelib chiqadi. Ijtimoiy vazifalar esa har qanday madaniylashgan jamiyatda davlat tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmuasi bo'lib, unga asosan quyidagilar kiradi:

- aholining kam tahminlangan tabaqalari (pensionerlar, talabalar, nogironlar va boshqalar)ni ijtimoiy himoya qilish;

- mamlakatda muntazam ijtimoiy, madaniy tadbirlar (xalq ta'limi, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, sanhat, s'ort)ni amalga oshirish;

- mamlakat mudofaasini tahminlash;

- fuqarolarning tinch mehnat qilishi va erkin yashashining muhofazasini tahminlash;

- xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar o'rnatish;

- bozor infratuzilmasini yaratish va hokazo.

Byudjetga izchil soliq tushumlarini jalb qilishda soliq tizimi tomonidan bajariladigan vazifalar alohida o'rin tutadi. Chunki vazifalar soliq siyosatining taktikasidan kelib chiqib, mamlakat oldida turgan eng dolzarb masalalarni oldingi o'ringa qo'yadi, doimiy xarakterga ega vazifalarni amalga oshirishni yanada izchillashtiradi.

Soliqlarning eng asosiy vazifalaridan biri — fiskallik (lotincha fiscus-g'azna) hisoblanadi. U doimiy, qat'iy, bir xil harakat qiladigan, o'zgarmas kategoriyadir. Chunki fiskal funktsiya qanday jamiyat bo'lishidan qat'iy nazar, mamlakat xazinasini to'ldirishning asosiy manbaidir. Ammo funktsiya orqali o'z-o'zidan byudjetga mablag' tushib qolmaydi. Uning zamirida huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat, ularning daromadlilik darajasi kabilar yotadi. Mazkur vazifa yordamida pul resurslarining mamlakat miqyosida markazlashtirilgan fondi tashkil etiladi hamda umumdavlat vazifalarini, yahni mudofaa, fan va madaniyat, ijtimoiy tahminot kabilarni bajarishga yo'naltiriladi.

Soliqlarning ikkinchi muhim vazifasi iqtisodiyotni tartibga solish bo'lib, bu bozor munosabatlarini shakllanishi va rivojlanishida alohida rolg' o'ynaydi. Davlat soliqlar orqali tovarlar ishlab chiqarish va sotish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatlarni tartibga soladi va iqtisodiyot tarmoqlarining faoliyatni amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti» yaratadi. Ushbu vazifa orqali davlat iqtisodiyot rivojini rag'batlantiradi, hamda fiskal vazifani to'laqonli amalga oshirish uchun «iqlim» yaratadi.

Soliqlarning keyingi vazifasi qayta taqsimlashdir. Xazina vazifasini bajarishdan avval soliqlar barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va fuqarolar daromadlarini taqsimotdan o'tkazib,

so'ng byudjetga kelib tushadi. Milliy daromad dastlabki taqsimotda, uning yaratuvchilari o'rtasida taqsimlansa, qayta taqsimotda soliqlar yordamida byudjetga yo'naltiriladi.

Byudjetda shakllangan mablag'lar mamlakat miqyosida keng qamrovli ijtimoiy vazifalarni bajarishga, yahni fan, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash kabi sohalarni tahminlashga, pensiya, stipendiyalar ajratishga sarflanadi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida soliqlarning keyingi vazifasi nazoratdir. Nazarot soliq tizimini davlat idorasi sifatida faoliyat ko'rsatishini tahminlaydigan eng muhim unsur hisoblanadi. Bu funktsiya boshqariladigan subg'ektlarning haqiqiy holati va faoliyatining ma'lum vaziyatga, ahvolga muvofiqligi yoki nomunofiqligini belgilash vositasi sifatida ishlatiladi.

Nazorat vazifasi orqali soliq mexanizmining samaradorlik darajasi baholanadi, barcha huquqiy va jismoniy shaxslarning moliyaviy resurslari harakatining nazorati tahminlanadi, soliq tizimi va byudjet siyosatiga u o'zgartirishlar kiritishga zaruriyat bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Soliq - moliyaviy munosabatlarning nazorat qilish vazifasi faqatgina taqsimot vazifasi amalga oshib, harakatga kelgandagina paydo bo'ladi. Dastlab moliyaviy resurslar taqsimlanib, tegishli sub'ektlar tomonidan iqtisodiy munosabatlar doirasida foydalanish boshlangan taqdirdagina nazorat vazifasi harakatga keladi. Demak, har ikkala vazifa yagona organik birlikda harakat qilsagina soliq - moliyaviy munosabatlar va byudjet siyosatining samarali vositasi sifatida amal qiladi.

5. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari

Soliq to'lovchining huquqi - bu, uning soliq munosabatlarida ishtirok etish imkoniyatlarining qonuniy normalaridir.

Amaliyotda soliq to'lovchilarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan huquqlari ikki toifaga bo'linadi.

Birinchisi - shartsiz huquqlar.

Soliq to'lovchi soliqqa tortish masalalari bo'yicha soliq organlaridan amaliy yordam olish, soliq organlari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yoki tekshiruv natijalariga binoan asossiz huquqbuzarlikda ayblanishi haqidagi soliq idorasining qarori yuzasidan soliq organlariga, ularning yuqori tashkilotlariga yoki sudga murojaat qilish huquqlaridan hech qanday shartlarsiz foydalanishi mumkin.

Ikkinchisi — shartli huquqlar. Bunday huquqlarga soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqini kiritish mumkin. Imtiyoz talablariga binoan imtiyoz huquqiga ega bo'lish uchun soliq idoralariga tegishli hujjatlar taqdim etilishi shart. SHuningdek, ortiqcha to'langan summalarni qaytarib olish uchun esa soliq to'lovchi tomonidan soliq idorasi boshlig'i nomiga rasmiy ariza taqdim etish sharti bajarilgandagina bu huquqdan foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

Soliq kodeksining 31-moddasida soliq to'lovchilarning huquqlari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

- davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliq va boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

- o'zlarining soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

- soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

- Soliq kodeksida, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

- soliq va boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga o'tkazish yoki qaytarib olish;

- soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni Soliq kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash;

- soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda ular yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

- soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

- soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

- davlat soliq xizmati organlarining boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof xatti-harakatlari tufayli yetkazilgan zararining o'zni qo'lanishini belgilangan tartibda talab qilish kabilardir.

Soliq to'lovchining majburiyati soliq to'lovchilarning soliqqa tortish munosabatlariga muvofiq bajarilishi shart bo'lgan va aniq maqsadga qaratilgan ongli faoliyati majmuasi sifatida qaraladi.

Davlat byudjetining harajatlarini moliyaviy tahminlashda soliq to'lovchilar majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi muhim ahamiyatga ega. Agar majburiyatlar soliq qonunchiligi normalarida belgilangan tartibda bajarilsa, davlat ahamiyatiga molik dasturlarning ijrosi ham tahminlanadi.

Soliq to'lovchilarning soliqqa tortish munosabatlari bilan bog'liq moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tartibga solish qonunlarda belgilangan majburiyatlarining bajarilishida asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Demak, soliq to'lovchilarning majburiyatlar majmuasi qanchalik to'liq bajarilsa, soliqqa tortish munosabatlari shunchalik samarali bo'ladi.

Soliq to'lovchilar tomonidan ular zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilmasligi davlat tomonidan majburiy choralar ko'rilishiga olib keladi. Soliq xizmati organlari davlat vakili sifatida qonun normalarida ko'zda tutilgan choralar bilan soliq to'lovchi tomonidan majburiyatlarni bajarilishini tahminlaydi.

Soliq munosabatlarining moddiy natijasi, ya'ni soliq to'lovchilar majburiyatlarining bajarilishi davlat byudjeti manfaatlarini bilan bevosita bog'liq. Soliq to'lovchilar majburiyatlari Soliq kodeksining 32-moddasida quyidagi tartibda berilgan.

- soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;
- qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini kiritishi, moliyaviy va soliq hisobotlarini tuzishi;

- davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga soliq bo'yicha imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

- soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

- davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Shuningdek, soliq agentlaridan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi hamda soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingani hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi talab etiladi.

3-MAVZU. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I

3.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchi sub'ektlar 2. Foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti va xarajatlar tarkibi 3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari 4. Yuridik shaxslarshtg foyda solig'i bo'yicha imtiyozlari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini tushuntirib berish, uni hisoblash va to'lash tartibi haqida bilimlar berish, ular bo'yicha berilgan imtiyozlarni bayon etish	
pedagogik vazifalar: • yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchi sub'ektlarni tavsiflaydi; • foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti va xarajatlar tarkibi tushuntiradi; • yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalarini aniqlaydi; • yuridik shaxslarshtg foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarini sanab beradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchi sub'ektlarni bilib oladi; • foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti va xarajatlar tarkibini tushunib oladi; • yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalarini farqlaydi; • yuridik shaxslarshtg foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarini o'rganib oladi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihojlangan auditoriya

3.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 min)	2.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchi sub'ektlarni tavsiflaydi; 2.2. Foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti va xarajatlar tarkibi tushuntiradi; 2.3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalarini aniqlaydi; 2.4. Yuridik shaxslarshtg foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarini sanab beradi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (15 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlari aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

3.3. O'quv materiallari

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchi sub'ektlar

Byudjet daromadlarini bunyod etishda har bir soliq turining o'z salmog'i bor. Bular ichida foyda solig'i alohida salohiyatga ega. Amaliyotda har qanday sub'ektning moliya-xo'jalik faoliyati natijalaridan soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ushbu soliq turi bo'yicha imtiyozga ega bo'lmagan yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadi.

Soliq kodeksiga asosan foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

- 1) O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- 2) O'zbekiston Respublikasi norsidentlari.

O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb quyidagilar ehtirol etiladilar:

- O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar;
- O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan, 1 yil ichida jami 183 kun va undan ortiq muddat O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxs.

Shu o'rinda chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning quyida keltiriladigan holatlar bo'yicha turgan davri uning O'zbekiston Respublikasi hududida haqiqatda turgan vaqtiga kiritilmasligini ta'kidlash lozim.

- diplomatik yoki konsullik maqomiga ega bo'lgan shaxs sifatida;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga ko'ra tuzilgan xalqaro tashkilotning xodimi sifatida;
- diplomatik yoki konsullik maqomiga ega bo'lgan shaxsning oila a'zosi sifatida, bunday jismoniy shaxs tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmagan taqdirda;
- faqat bir chet davlatdan boshqa chet davlatga O'zbekiston Respublikasi hududi orqali o'tish (tranzit o'tish) uchun;
- agar jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasida faqat turist sifatida, davolanish yoki dam olish maqsadlari bilan turgan bo'lsa.

Yuqorida qayd etib o'tilgan mezonlarga javob bermaydigan shaxs O'zbekiston Respublikasining norezidenti deb ehtirol etiladi.

Foyda solig'ini hisoblashda dastavval korxona jami daromadini aniqlash lozim. Jami daromad uchun jo'natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun korxona olishi lozim bo'lgan mablag'lar yoki tekinga olingan mablag'lar asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

SHu o'rinda notijorat tashkilotlari (agar ular tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansalar olingan foydadan soliq to'laydilar) hamda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanmaydilar.


2. Foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti va harajatlar tarkibi

Amaliyotda soliq solish ob'ektini aniqlab olish muhimdir. Soliq solish ob'ekti bu soliq solini'sh lozim bo'lgan tovar aylanmasi, olingan foyda, mavjud mol-mulk egallangan maydonlar kabilar bo'lib hisoblanadi. Yuridik shaxslarning foyda solig'i solinadigan soliq solish ob'ekti O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlarining foydasi hamda ularni soliq kodeksiga muvofiq chegirmalar qilinadigan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari bo'lib hisoblanadi.

Soliq hisob-kitoblari to'g'ri, bexato amalga oshirilishi soliq bazasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi. Soliq bazasi barcha soliq turlarining manbasi sifatida iqtisodiyotda yaratilayotgan daromadlar, tovar (ish, xizmat)lar aylanmasi, mulklar qiymati, yer maydoni, qo'shimcha qiymatlar, jismoniy shaxslar daromadlari kabilar bo'lib hisoblanadi (4-chizma).

4-chizma

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti




Yuridik shaxslar uchun soliq solinadigan baza jami daromad bilan chegirib tashlanadigan harajatlar o'rtasidagi farq sifatida, qonunchilikda ko'zda tutilgan imtiyozda hamda soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

Foyda solig'ini hisob-kitobini amalga oshirishda jami daromadlar tarkibini aniqlab olish muhimdir. Unga quyidagilar kiradi (5-chizma):

5-chizma

Jami daromad tarkibi



Shu o'rinda soliq to'lovchining daromadi tarkibiga kiritilmaydigan manbalarga ehtibor berish muhimdir.

Xususan, ustav fondiga olingan hissalar, byudjetdan berilgan subsidiyalar, olingan grantlar, sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar kabilar soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydi.

Boshqa daromadlarga tovarlar, ishlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi. Jumladan soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar. Bunday daromadlar tarkibi buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar (ulush, pay)ning, tovar-moddiy zahiralari va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan foyda, asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromadlar kiradi. Bundan tashqari mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar ham boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

Aynan, ijara to'lovining summasi mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromad bo'lib hisoblanadi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar ham boshqa daromadlar sifatida tushuniladi.

Amaliyotda tekinga olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar ham yuridik shaxslarning boshqa daromadlari tarkibiga kiradi. Chunki, soliq to'lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ish va xizmatlar soliq to'lovchining daromadi bo'ladi. Mol-mulk, mulkiy huquqlar tekin asosda olinayotganda oluvchi shaxsning daromadlari bozor qiymati bo'yicha belgilanadi.

Mol-mulkning, mulkiy huquqlarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tomonidan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar ehtirol etiladi:

- jo'natish (etkazib berish) hujjatlari;
- yetkazib beruvchilarning narxlariga oid ma'lumotlari (prays-varaklar);
- ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar;
- birja ma'lumotlari;
- davlat statistika organlarining ma'lumotlari.

SHuningdek, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar ham yuridik shaxslarning boshqa daromadlari sifatida qaraladi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar deganda faoliyati soliq to'lovchining asosiy faoliyatiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan va mazkur soliq to'lovchining maqsadi bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmagan xo'jaliklar tushuniladi. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga yordamchi xo'jaliklar, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlari, oshxonalar va bufetlar, o'quv kombinatlari hamda shunga o'xshash xo'jaliklar, o'z xodimlariga yoki boshqa shaxslarga xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarishlar va xizmatlar kiradi.

Uy-joy kommunal xo'jaligi ob'ektlariga uy-joy fondi, mehmonxonalar (turistik mehmonxonalar bundan mustasno) boshqa joydan keluvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi obodonlashtirish ob'ektlari, sun'iy inshootlar, suv havzalari, plyajlar uchun inshoot hamda jihozlar, shuningdek aholini gaz, issiklik va elektr bilan ta'minlash ob'ektlari, uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha jismoniy tarbiya va sport ob'ektlariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'minlash uchun mo'ljallangan uchastkalar, tseklar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar mexanizmlar, omborxonalar kiradi.

Ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlariga sog'liqni saqlash, madaniyat ob'ektlari, maktabgacha

tarbiya ob'ektlari, bolalash dam olish oromgohlari, sanatoriylar (profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va s'ort ob'ektlari (jumladan trekler, otcho'arlar, otxonalar, tennis kortlari, golg'f, badminton o'yinlari uchun maydonchalar, sog'lomlashtirish markazlari, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasining ishlab chiqarishga oid bo'lmagan ob'ektlari (hammomlar, saunalar, kir yuvish, tikish hamda maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa ustaxonalar) kiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tomonidan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan (olinadigan) mablag'lar summasi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar faoliyati bilan bog'liq harajatlar summasi o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

SHu o'rinda harajatlar tarkibi va uni chegirish tartibi haqida to'xtalib o'tish muhimdir. Tabiiyki, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatini amalga oshirishda ma'lum xarajatlar qiladi. Aynan harajatlar tarkibini aniqlashtirish hamda uni foyda solig'ini hisob-kitobini amalga oshirishda chegirib tashlash mexanizmi soliq to'lovchi korxonalar faoliyatiga tahsir ko'rsatadi. SHu sababli harajatlarni guruhlash muhim ahamiyatga ega.

Darhaqiqat, asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan harajatlar qonun hujjatlariga yoki soliq to'lovchining hisobga olish siyosatiga muvofiq rasmiylashtirilgan zararlar ham soliq to'lovchining harajatlari bo'lishini tahkidlash lozim.

Soliq to'lovchining harajatlari haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegirib tashlanadi. Agar ayni bir xil harajatlar harajatlarni bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, soliq solinadigan foydani hisoblashda mazkur harajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchining harajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Soliq to'lovchining harajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan harajatlarga ajraydi.

CHegirib tashlanadigan harajatlar moddiy harajatlar va mehnatga haq to'lash tarzidagi harajatlar, amortizatsiya harajatlari va boshqa harajatlarga ajraydi.

Moddiy harajatlarga quyidagilar kiradi:

- xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilinadigan tovarlarni o'rash, tayyorlash, tahrirlash uchun materiallar va ehtiyot qismlar;
- inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'lmagan boshqa mol-mulk;
- soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdagi yonilg'i, energiya, shu jumladan soliq to'lovchining o'zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlari uchun barcha turdagi energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek energiyani bir shakldan o'zga shaklga o'tkazish va uzatish harajatlari;
- erlarni rekulg'tivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari uchun harajatlar;
- belgilangan normalar doirasida soliq to'lovchilar tomonidan istehmol qilinadigan suv uchun to'lov;
- tasdiqlangan normalar doirasida ishlab chiqarish yoki tashish chog'idagi texnologik yo'qotishlar;
- tasdiqlangan tabiiy kamayish normalari doirasida tovar-moddiy zahiralarni saqlash hamda tashish chog'idagi yo'qotishlar va buzilishlar.

CHegirib tashlanadigan harajatlarning ikkinchisi mehnatga haq to'lash harajatlari bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi;
- ilmiy daraja, faxriy unvon uchun ustamalar;
- ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;
- rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;
- yillik ish yakuni bo'yicha mukofot;
- kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va mansab maoshlariga ustamalar;
- ko''yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;

- ratsionalizatorlik takliflari uchun to'lovlar;
- kompensatsiya to'lovlari kabilar.

CHegirib tashlanadigan harajatlarning keyingisi amortizatsiya harajatlari hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya qilinadigan mol-mulk deb ehtirol etiladi.

Quyidagilar esa amortizatsiya qilinmaydi:

- yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob'ektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- mahsuldor chorva mollari;
- kutubxona fondi;
- muzey qimmatliklari;
- konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- arxitektura yodgorliklari;
- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'laklar, sayilgoxlar, hiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;
- qiymati ilgari to'liq hisobdan chiqarilgan mol-mulk;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tkazilmagan ka'ital qo'yilmalar.

CHegirib tashlanadigan harajatlarning yana bir turi boshqa harajatlar hisoblanadi.

Boshqa harajatlar o'z tarkibiga ko'ra quyidagi harajatlarni o'z ichiga oladi:

- soliq to'lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun o'zga yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiymati;
- asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy hamda ka'ital tahmirlash xarajatlari);
- ijara to'lovlari, shuningdek ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar;
- konservatsiyalangan ishlab chiqarish quvvatlari va obg'ektlarini saqlash xarajatlari;
- mahsulot sotish bozorlarini o'rganish xarajatlari;
- inventarni, xo'jalik anjomlarini va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfektsiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to'langan haq;
- qat'iy hisobotdagi blanklarni, kvitantsiyalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish uchun to'langan haq;
- tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;
- reklama uchun xarajatlar;
- telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to'lanadigan haq;
- xizmat safarlari uchun xarajatlar kabilar.

3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan daromad (foyda) solig'i stavkasi - 1992 yilda 45 foizli qilib belgilangan bo'lib, 1998 yil 1 yanvardan amalga kiritilgan Soliq kodeksida 35 foiz darajasida belgilangan. Keyingi yillarda daromad (foyda) solig'ining stavkasi quyidagicha kamayib bordi.

- 1999 yil 1 yanvar - 33 foiz;
- 2000 yil 1 yanvar - 31 foiz;
- 2001 yil 1 yanvar - 26 foiz;
- 2002 yil 1 yanvar - 24 foiz;
- 2003 yil 1 yanvar - 20 foiz;
- 2004 yil 1 yanvar - 18 foiz;
- 2005 yil 1 yanvar - 15 foiz;
- 2006 yil 1 yanvar - 12 foiz;
- 2007 yil 1 yanvar - 10 foiz;
- 2008 yil 1 yanvar - 10 foiz;
- 2009 yil 1 yanvar - 10 foiz;
- 2010 yil 1 yanvar - 9 foiz.

2007 yil 1 yanvardan yuridik shaxslarning foyda solig'i stavkasi 10 foiz miqdorida bo'lgan

bo'lsa, 2010 yilda ushbu stavka 9 foiz qilib belgilandi. 2008 yildan ehtiboran Soliq kodeksi qabul qilinishi bilan birga daromad (foyda) solig'i o'rniga foyda solig'i atamasi ishlatila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2009 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2010 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1245-sonli qaroriga asosan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari quyidagicha belgilandi.

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining solishtirma stavkalari
(2013 yil va 2014 yillar)**

1 –jadval

№	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan % da soliq stavkalari	
		2013	2014
1.	Yuridik shaxslar	9	8
2.	Tijorat banklari	15	15
3.	Auktsionlar o'tkazishdan, Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35	35

4. Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar

Umuman, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyoz deganda nima tushuniladi.

Imtiyoz boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, yahni soliq yoki boshqa majburiy to'lov to'lamaslik, kamroq miqdorda to'lash imkoniyati bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar

6-chizma

Yuridik shaxslarning foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash shakli		
Soliqdan ozod etish		Soliq solinadigan foydani kamaytirish

Foyda solig'i bo'yicha soliq to'lashdan ozod etilgan sub'ektlar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar bo'lib hisoblanadi. Savdo, vositachilik, tahminlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarga mazkur imtiyoz tadbiriq etilmaydi. Imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga faqat shtatda turgan xodimlar kiritiladi;

2) davolash muassasalari huzuridagi davolash - ishlab chiqarish ustaxonalari;

3) jazoni ijro etish muassasalari;

4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari.

Shu o'rinda yuridik shaxslarning quyidagi tarzda olinadigan foydasi soliqqa tortilmasligini ta'kidlash lozim.

1) protez-orto'ediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga orto'edik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-orto'ediya buyumlari va inventarlarni tahrirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi;

2) shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi;

3) tarix va madaniyat yodgorliklarini tahrirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

4) investitsiya fondlarining xususiy lashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olingan foydasi.

Ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan ko'rog'ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun foyda solig'i summasi quyidagi hisob-kitob bo'yicha amalga oshiriladi, yahni

belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgash nogironlarning har bir foiziga foyda solig'ining summasi bir foizga kamaytiriladi.

Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarning ikkinchi ko'rinishi soliq solinadigan foydani kamaytirish bo'lib, yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi: -ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalari, madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saklash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va s'ort muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va xayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'' bo'lmagan miqdorda;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlari, akademik litseylari, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'' bo'lmagan miqdorda;

-ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlar uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing ob'ekti qiymatining o'rnini qo'lashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq olinadigan foydaning 30 foizidan ko'' bo'lmagan miqdorda.

-diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya fondlarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va fondlarning ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga kamaytiriladi;

-qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilari uchun sof qo'shimcha foyda summasiga.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va to'lashda qo'llaniladigan tartib bo'yicha kalendar yili soliq davri bo'lib hisoblanadi. Yilning har bir choragi hisobot davridir. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisob-kitobini ushbu shaxslarning bosh hisobchilari «Buxgalteriya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablari asosida mustaqil amalga oshiradi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati idoralariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yilning moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatida to'shiriladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi Davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni, shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni to'shirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobida byudjetga to'lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko'rsatiladi.

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy to'lovlarini kiritish orqali to'laydilar. Joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha Davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan foyda solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadi.

Foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 15-kuniga qadar hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining 1/3 qismi miqdorida to'lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining 200 baravaridan kam bo'lgan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi. Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, Davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

4-MAVZU. JISMONIY SHAXSLARDAN OLI'ADIGAN DAROMAD SOLIG'I

4.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; 2. Jismoniy shaxslarning jami daromad tarkibi; 3. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalari; 4. Jismoniy shaxslarning identifikatsiya rakami; 5. Deklaratsiya tizimi; 6. Daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad so'lig'ining iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini tushuntirib berish, uni hisoblash va to'lash tartibi haqida bilimlar berish, ular bo'yicha berilgan imtiyozlarni bayon etib berish.	
pedagogik vazifalar: • jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini tavsiflaydi; • jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibini aniqlaydi; • jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalarini aniqlaydi; • daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni sanab beradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining iqtisodiy mazmunini bilib oladi; • Jismoniy shaxslarning jami daromad tarkibini tushunib oladi; • Jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalarini aniqlaydi; • Daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni o'rganib oladi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

4.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 min)	2.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini tavsiflaydi; 2.2. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibini aniqlaydi; 2.3. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalarini bayon etadi; 2.4. Daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni sanab beradi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (15 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlarini aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

4.3. O'quv materiallari

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida»gi Qonuniga asosan joriy etilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilgandan boshlab «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i» deb yuritila boshlandi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i amalda barcha mamlakatlarda keng tarqalgan soliq turi hisoblanadi. Mazkur soliq turi aholining deyarli barcha qatlamlarini qamrab olgan, undirish mexanizmi yaxshi ishlab chiqilgan va barqaror soliqdir. Bozor munosabatlari sharoitida har qanday daromad, tekinga olingan buyum, mulk yoki foyda albatta soliqqa tortilishi lozim.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan-to'g'ri o'z daromadidan olinadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar asosan naqd pul to'lash yo'li bilan byudjetga o'tkaziladi.

Faqat korxona va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan jismoniy shaxslarning daromad solig'i yuridik shaxslar tomonidan hisoblanib byudjetga o'tkaziladi.

SHu nuqtai nazardan jismoniy shaxslarning soliqlarini hisoblash 2 yo'l bilan olib boriladi:

1) daromad to'lovchi yuridik shaxslar, yahni korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar, xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ish haqi va boshqa daromadlaridan soliq agentlari tomonidan hisoblanadi;

2) soliq xizmati idoralari mutaxassislari tomonidan aholining yer va mol-mulk solig'i hisobi amalga oshiriladi.


Sobiq Ittifoq davrida aholining daromad manbai asosan ish haqi bo'lganligi sababli daromad solig'i aynan ish haqi bazasida hisoblanib soliqqa tortilar edi. Endilikda erkin iqtisodiy munosabatlar, fuqarolar tomonidan daromad to'ish imkoniyati va manbalari ko'ayishiga olib keldi. Oqibatda aholi to'laydigan daromad solig'ining manbasi faqat ish haqi emas, balki boshqa qo'shimcha faoliyat orqali olingan daromatlardan ham iborat bo'ladi.

Amaldagi Soliq kodeksiga, ko'ra ***soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.***

Mazkur soliq bo'yicha hisob-kitob ishlarining to'g'ri va aniq yuritilishi soliq solish ob'ektini aniqlab olishdan boshlanadi.

7-chizma


Soliq solish ob'ekti



Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi. Agar soliq to'lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko'ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga ko'ra ma'lum ushlar amalga oshirilsa, ular soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

2. Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi

Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibiga kiruvchi asosiy manbalar tarkibi quyidagicha:



Mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblanib, to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deyiladi.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar kiradi:

- rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar;
- kompensatsiya to'lovlari;
- ishlamagan vaqt uchun haq to'lash.

Rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlarga yillik ish yakuni bo'yicha bir yo'la beriladigan mukofotlar, kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va maoshlariga ustamalar, tahtilga qo'shimcha haqlar, ko' yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar, ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov kabilar kiradi.

Kompensatsiya to'lovlariga tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar, og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish va bayram kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlariga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar, qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala tahminoti, xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha sutkalik haqlar, xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lov kabilar mansubdir.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash qonun hujjatlariga muvofiq yillik asosiy tahtilga haq to'lash, tahtildan foydalanilmaganda shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lash, noqulay va o'ziga xos mehnat shartnomalarida, og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha tahtilga haq to'lash, o'qish bilan bog'liq va ijodiy tahtillarga haq to'lash, o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki 16 yoshga to'lmagan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha tahtilga haq to'lash, o'smirlarni imtiyozli soatlariga, onalar bolalarni ovqatlantirish uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek, tibbiy ko'rik bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash, donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon to'shirish va qon to'shirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash, davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi, xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun haq to'lash, mehnat layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash kabilar kiritiladi.

Mulkiy dyaromadlar tarkibiga olingan foizlar, mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar, dividendlar, royalti, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin xususiy korxona egasi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i, xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius iktiyorida qoladigan foyda summasi kabilar kiradi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlarga quyidagilar kiradi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida moddiy naf tarzidagi daromadlar jismoniy shaxslarning jami daromadining yangi manbai sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Soliq to'lovchi tomonidan yuridik shaxsdan moddiy naf tarzida olingan daromadlar tarkibiga quyidagilar mansub:

- jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash;
- kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy, kartira, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rnini qo'lash qiymatini to'lash;
- oziq-ovqat, yo'l chi'talari qiymatini to'lash yoki oziq-ovqat, oylik yo'l chi'talari qiymatini qo'lash;
- sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rnini qo'lash qiymatini to'lash kabilar.
- Jismoniy shaxs yuridik shaxsdan aktsiz to'lanadigan tovarlar yoki qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar, ishlar, xizmatlar olsa, bunday tovarlar, ishlar, xizmatlar qiymatida aktsiz solig'ining va qo'shilgan qiymat solig'ining tegishli summasi hisobga olinadi.
- Jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibiga boshqa daromadlar ham kiritilgan bo'lib, unga quyidagilar kirishi Soliq kodeksida belgilab qo'yilgan:
 - pensiya va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar;
 - stipendiyalar;
 - fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turdagi yordam;
 - donorlik uchun pul mukofotlari;
 - alimentlar;
 - hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, i'ak qurti, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;
 - jismoniy shaxslardan tekin yoki hadya tarzida olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;

- musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;
- yutuqlar;
- grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar;
- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;
- yaratilgan fan, adabiyot va sanhat asarlari uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar;
- O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;
- xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;
- moddiy yordam tariqasida;
- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlar;
- xodimga mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud sog'liqqa boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq to'lovlar;
- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan to'lovlar;
- maqsadli xususiyatga ega hamda xodimlar bilan yuz bergan shaxsiy tusdagi voqealar, hodisalar va tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan hamda bajariladigan ish natijalariga bog'liq bo'lmagan to'lovlar;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;
- mahnaviy zararni qo'lash bo'yicha pul to'lovlari;
- xalqaro s'ort musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun s'ortchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;
- xodim bilan mehnat shartnomasi alohida asos bo'yicha tugatilgan taqdirda, mehnat haqidagi qonun hujjatlariga muvofiq moddiy yordam sifatida beriladigan ishdan bo'shatilgan nafaqasi va boshqa to'lovlar;
- favqulodda holatlar yuz berganda beriladigan to'lovlar kabilar.

2. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkalari

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hioblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Aholi to'laydigan daromad solig'i ayrim soliq turlariga nisbatan yoshroqdir. U birinchi marotaba Angliyada 1798 yilda amaliyotga kiritilgan bo'lsada, 1816 yilgacha harakatda bo'lgan, xolos. Keyinchalik 1842 yilda Angliya ushbu soliq turini yana, qaytadan qo'llay boshlagan. Boshqa mamlakatlarda daromad solig'i XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida qo'llanila boshlandi. Masalan, prussiyada 1891 yilda, Frantsiyada 1914 yilda, Rossiyada esa 1916 yilda daromad solig'i to'g'risida qonun qabul qilingan.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkasi Respublikamizda soliq amaliyoti yuritilayotgan paytdan amal qilib keladi va shu yillar ichida uning shkalasi va foiz stavkalari muntazam kamayib kelmokda.

Bugungi kunda jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkasi 3 shkala ko'rinishida amal qiladi va yuqori stavkasi 22 foizni tashkil etadi.

Xususan, 2014 yilda jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkasi quyidagi ko'rinishga ega va stavkalari ancha pasaygan.

2014 yil uchun jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkasi

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkalari			
	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Eng kam ish haqining besh barobarigacha	10 %	9 %	8 %	7,5 %
Eng kam ish haqining besh barobaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	16 %	16 %	16 %	16 %
Eng kam ish haqining o'n barobari (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	22 %	22 %	22 %	22 %

Fuqarolarning ayrim toifalari uchun tomonidan olinadigan daromadlarning alohida turlariga soliq stavkalarini belgilashda eng kam stavka bo'yicha soliq solinishi nazarda tutilgan. Xususan, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan koeffitsientlar bo'yicha qo'shimcha to'lovlar tariqasida olingan daromadlarga shunday imtiyozlar qo'llaniladi. Bunda cho'l va suvsiz joylarda, baland tog'li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun yuridik shaxslar xodimlarining ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasi hisoblash paytidagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida belgilanadi.

Korxona, muassasa, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlarini ham eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlaridan soliq undirish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim. Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Daromad solig'ini soliq agentlari tomonidan to'lov manbaida ushlab qolish tartibiga ko'ra soliq solish soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq agentlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq agentlari soliq to'lovchining to'lov manbaida soliq soladigan daromaddaridan hisoblangan soliq summasini mazkur daromadlar haqiqatda to'lanayotgan paytda ushlab qolishlari shart. Masalan, korxona va tashkilotlar, boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlayotgan xodimga oylik ish haqi mazkur sub'ektlarning buxgalteriyasida ishlab chiqiladi hamda soliq hisob-kitobi amalga oshirilib, soliq summasi soliq agentlari tomonidan byudjetga o'tkaziladi. Demak, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning hisoblangan summasini soliq to'lovchidan ushlab qolish soliq agenti soliq to'lovchiga to'layotgan har qanday pul mablag'lari hisobidan, ko'rsatilgan pul mablag'lari haqiqatda soliq to'lovchiga yoki uning to'shirig'iga binoan uchinchi shaxslarga to'lanayotganda amalga oshiriladi.

Daromad solig'ining to'g'ri ushlab qolinishi va o'z vaqtida byudjetga o'tkazilishi uchun javobgarlik daromad to'layotgan soliq agentining zimmasida bo'ladi. Mazkur soliq summasi ushlab qolinmagan taqdirda, soliq agenti ushlab qolinmagan summani hamda u bilan bog'liq penyani byudjetga to'lashi shart.

Daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi. Bu summa 1 foizni tashkil etadi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan moddiy yordam va qimmatbaho sovg'a olgan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlar to'g'risida deklaratsiya to'shingan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davrining oxirida amalda bo'lgan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish, xizmat, o'qish joyi o'zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingani daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish, xizmat, o'qish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish, xizmat, o'qish joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining **identifikatsiya** raqami taqdim etilmagan taqdirda, daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, soliq summasi ilgarigi asosiy ish, xizmat, o'qish joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish, xizmat, o'qish joyida daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon avvalgi va yangi ish, xizmat, o'qish joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

3. Jismoniy shaxslarning identifikatsiya raqami

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami soliq to'lovchi soliq idoralarida ro'yxatga qo'yilganda unga beriladigan to'qqiz raqamli belgidir. Identifikatsiya raqami har bir soliq to'lovchiga bir marta beriladi va umrbod uning nomida bo'ladi. SHu sababli soliq to'lovchining identifikatsiya raqami o'zgarmaydi va bekor qilingandan keyin boshqa soliq to'lovchiga berilmaydi.

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ma'lum hujjatlarda yozib qo'yiladi. Xususan,

-yuridik va jismoniy shaxslarning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomada;

-faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanishga doir litsenziyada;

-cheklardan tashqari, pul bilan hisob-kitob qilinadigan to'lov hujjatlarida;

-Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan moliyaviy va soliq hisoboti hujjatlarida;

-tuziladigan fuqarolik-huquqiy va mehnat shartnomalarida;

-yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bitimlar tuzganligini tasdiqlovchi yoki belgilovchi hujjatlarda, shu jumladan hisobvaraqa-fakturalar va transport hujjatlarida;

-yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarda qiymat ifodasiga ega bo'lgan moliyaviy, mulkiy hamda boshqa majburiyatlar yuzaga kelganligini, shuningdek ularning bajarilishini belgilovchi yoki tasdiklovchi hujjatlar.

Soliq idoralariga hisob-kitoblarni taqdim etishda asosiy vazifa soliq agentlari zimmasiga tushadi.

Ular eng avvalo soliq davri tugaganidan so'ng 30 kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromaddan olgan jismoniy shaxslar to'g'risida belgilangan shaklda ma'lumotnoma taqdim etishlari shart. SHuni ehtirof etish lozimki, asosiy ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslar bunday ma'lumotnoma taqdim etilmaydilar.

Ma'lumotnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

-soliq to'lovchining jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;

-soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi (manzili);

-o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha daromadlarning umumiy summasi va daromad solig'ining ushlab qolingani umumiy summasi;

-soliq agentining identifikatsiya raqami;

-soliq agentining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili);

Ikkinchidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechikmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalari hamda daromad solig'ining ushlab qolingani summalari to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan shaklda taqdim etishlari shart.

Hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasi byudjetga soliq agenti tomonidan belgilangan muddatlarda o'tkazib boriladi. Xususan,

-ul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka xujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda;

-to'lov natura holida amalga oshirilsa oy tugaganidan so'ng besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa.

Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani soliqlarni byudjetga o'tkazish uchun mablag'lar yetarli bo'lmasa, daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mutanosib summada byudjetga o'tkaziladi.

4. Deklaratsiya tizimi

Daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya jismoniy shaxslarning qo'shimcha oladigan daromadlarini soliqqa tortish hamda u haqida ma'lumot beruvchi hujjatdir.

Jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqari qo'shimcha daromad to'salar yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansalar, bir martalik ishlarni bajarsalar to'gan jami daromadi haqida axborotnoma, xabarnomani o'zlari yashaydigan hududdagi davlat soliq xizmati idoralariga taqdim etishlari lozim.

Demak, deklaratsiya qo'shimcha to'ilgan daromadlar haqidagi ma'lumotnoma bo'lib, fuqaro tomonidan yil davomida to'gan barcha daromadlari va shu daromadni olish bilan bog'liq harajatlar haqida axborot beradi.

Soliq deklaratsiyasini taqdim etish butun Respublika hududida joriy etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad qo'shimcha manbadan daromad oluvchilarning sof daromadini aniqlash va uni soliqqa tortishdir.

Deklaratsiya fuqaroning yashash joyidagi Davlat soliq ins'ektsiyasiga to'shiriladi. Belgilangan shakldagi deklaratsiya blankalari barcha shahar va tuman ins'ektsiyalarida mavjud va ular deklarantga be'ul taqdim etiladi.

Fuqarolarimiz u yoki bu olayotgan daromadi to'g'risida soliq idoralari qanday qilib xabar to'adi deb be'arvo bo'lmasliklari kerak. Chunki bojxonadan tovar olib o'tgan fuqaro to'g'risida bojxona organlaridan, chet eldan olgan daromadi haqida shartnoma mavjud bo'lgan mamlakatlardan axborot olinadi. Soliq idoralari har oyda tijorat do'konlaridan sotishga tovar to'shirganlar haqida, notarial idoralardan esa ijaraga mol-mulk bergan fuqarolar to'g'risida ma'lumot oladi. Demak, soliq idoralari muntazam tarzda fuqarolarimiz tomonidan olinadigan qo'shimcha daromadlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

- mulkiy daromad, fan, adabiyot va sanhat asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

- ikki yoki undan ko'' manbadan olingan daromadlar;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar.

Soliq to'lovchining arizasiga ko'ra asosiy bo'lmagan ish joyidan olgan daromadlari bo'yicha daromad solig'i eng yuqori stavkada ushlab qolinsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

SHu o'rinda mualliflik haqi tariqasida fan, adabiyot va sanhat asarlarini yaratganlik uchun mualliflik haqi tariqasida daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar yakka tart'bdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmagan holda bunday faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega ekanligini tag'kidlash lozim.

Fan, adabiyot va sanhat asarlarini yaratganlik uchun mualliflik haqi olayotgan jismoniy shaxs daromadlar olish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart. SHuni tahkidlash lozimki, jismoniy shaxs ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq haqiqatda qilingan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, biroq chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko'' bo'lmasligi kerak.

SHu o'rinda ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarga fan, adabiyot va sanhat asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur materiallar olishga doir xarajatlar, faqat fan, adabiyot va sanhat asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan ish va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar kirishini ko'rsatish mumkin.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli Davlat soliq qo'mitasi va Moliya nashrligi tomonidan tasdiqlanadi. Unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi (manzili);

- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami

yillik daromad. Bunda bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ana shu operatsiyalarning o'zidan olish mo'jallanayotgan daromad aks ettiriladi;

- daromadlarning manbalari;

- daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summolari;

- jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar;

- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;

- haqiqatda to'langan soliq summasi.

Deklaratsiya soliq idoralariga pochta aloqasi orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida va soliq to'lovchining shaxsan tashrifi orqali taqdim etilishi mumkin.

Taqdim etilgan deklaratsiyada to'lanishi lozim bo'lgan daromad solig'i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlansa, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o'zgartishlar kiritishi mumkin.

Jismoniy shaxs tomonidan deklaratsiyani o'zgartirish to'g'risidagi ariza daromad solig'ini to'lash muddati tugaguniga qadar berilsa, soliq to'lovchi Soliq kodeksida belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyani o'zgartirish to'g'risidagi ariza daromad solig'ini to'lash muddati tugaganidan keyin biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanganiga qadar berilsa, soliq to'lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan deklaratsiyada aniqlangan xatolik to'g'risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmat' organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 a'ridan kechiktirmay taqdim etadilar.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxslar ham o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1 a'rigacha deklaratsiya to'shiradi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani to'shirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, daromad solig'i miqdorini, shuningdek Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organing tegishli xulosasini ko'rsatishi lozim.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxslar soliq idoralariga dastlabki va yakuniy deklaratsiyani to'shiradilar:

- dastlabki deklaratsiyani - shunday daromadlar yuzaga kelgan kundan ehtiboran bir oy o'tgach, besh kunlik muddatda, ular bu daromadlarga jismoniy shaxslar daromadlariga to'lov manbaida solinadigan soliq solinmagan bo'lsa;

- yakuniy deklaratsiyani - o'tgan soliq davridan keyingi yilning 15 yanvariga qadar.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish muddati tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga bu haqda yozma shaklda habar qilishi kerak. Eslatib o'tamiz, jismoniy shaxslar tomonidan olingan qo'shimcha manbalar to'g'risida deklaratsiya to'shirishda quyidagi muddatlarni yoddan chiqarmang:

1 fevral - korxona va tashkilotlar hisobchilari tomonidan o'rindoshlik asosida ishlovchilarning olgan daromadlari va to'langan soliqlar haqida yashash joyidagi Davlat soliq ins'ektsiyasiga ma'lumot taqdim etishning so'nggi kuni.


1 a'rel - ikki va undan ortiq manbalar bo'yicha daromad olganlik haqida deklarant tomonidan Davlat soliq ins'ektsiyasiga tashrif buyurib hisob-kitob ishlarini amalga oshirishning oxirgi kuni.

1 iyun - hisoblangan qo'shimcha to'lovlarni to'lashning so'nggi kuni.

5. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlari soliq amaliyotida alohida o'rin tutadi. Bunda soliq yukini kamaytirish aholini turli tabaqalari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi, ularning ijtimoiy holati, kasb turlari va boshqa holatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Unga ko'ra jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar quyida keltirilgan.



Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlariga quyidagilar kiritiladi:

-moddiy yordam summolari. Bunda, favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari to'laligicha, vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari eng kam ish haqining 20 baravarigacha hamda boshqa hollarda soliq davri uchun eng kam ish haqining 12 baravarigacha miqdorda belgilab qo'yilgan.

SHuningdek, yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qo'llash summolari o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya yoki statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollashlar vaqtinchalik bir martalik ish bilan tahminlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi, xalqaro s'ort musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun s'ortchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti, donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar ham jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari toifasiga kiritildi.

Imtiyozlar tarkibida chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga ham yengilliklar berish ko'zda tutilgan. Xususan, uy xo'jaligida va dehqon xo'jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik va so'yilgan holda mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik agrokorxonalarining boshqaruvlari tomonidan berilgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi. Bunda realizatsiya qilingan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiklovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etilishi shart.

Darhaqiqat, jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlariga xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati, davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar, olingan. Alimentlar, fuqarolarning sug'urta to'voni sifatida oladigan summolari, qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar, fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarini, O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi va 26 yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summolari, O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalar kabilar ham kiritiladi.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarning keyingi ko'rinishi soliq solishdan to'liq ozod qilish bo'lib hisoblanadi. Unga ko'ra quyidagilar daromad solig'i to'lashdan to'la ozod etilgan:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining mahmuriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromaddari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari - agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar - xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul tahminoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summalari bo'yicha;

7) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari, ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

8) Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar - ana shu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha.

5-MAVZU. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

5.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Qo'shilgan qiymat solig'i haqida 2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar, soliq solish ob'ekti va bazasi 3. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va imtiyozlar 4. Qo'shilgan qiymat solig'ini rasmiylashtirish
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini tushuntirib berish, uni hisoblash va to'lash tartibi haqida bilimlar berish.	
pedagogik vazifalar: • Qo'shilgan qiymat solig'ini iqtisodiy tavsiflaydi; • Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasini aniqlaydi; • Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va imtiyozlarni bayon etadi; • Qo'shilgan qiymat solig'ini rasmiylashtirish tartibini tushuntiradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • Qo'shilgan qiymat solig'i haqida bilimga ega bo'ladi; • Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi farqlay oladi; • Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va imtiyozlarni bilib oladi; • Qo'shilgan qiymat solig'ini rasmiylashtirish tartibini o'rganadi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihojlangan auditoriya

5.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitaldilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 min)	2.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mazmunini tushuntiradi. 2.2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'ekti va bazasi haqida tushunchalar beradi; 2.3. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va u bo'yicha imtiyozlarni bayon etadi; 2.4. Qo'shilgan qiymat solig'ini rasmiylashtirish tartibini o'rgatadi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (15 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlari aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

5.3. O'quv materiallari

1. Qo'shilgan qiymat solig'i haqida

Soliq to'g'risidagi qonunlar takomillashgani sari byudjet tushumlarini olish vositasi sifatida umumiy istehmolga doir soliqlarning ahamiyati ortib boradi. Xususan qo'shilgan qiymat solig'i eng yosh soliq turlaridan biri sifatida aynan shu yo'nalishga xizmat qiladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini undirish sxemasi birinchi bo'lib, frantsuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954 yilda taklif etilgan va 1958 yildan Frantsiya soliq tizimiga kiritilgan. 1958 yilgacha qo'shilgan qiymat solig'i soliq tizimida qo'llanilmagan bo'lsada, ammo u statistik maqsadlarda keng ishlatilgan. Xususan, AQSHda 1870 yildan, Yevro'a mamlakatlarida XX asrning 30-40 yillarida qo'llanilgan. Sobiq SSSRda yangi iqtisodiy siyosat (NE') davrida, yahni XX asrning 20-yillarida analitik maqsadlarda qo'llanilgan.


1993 yil 31 dekabr holatiga qo'shilgan qiymat solig'i dunyoning 43 ta mamlakatida amal

qilgan. Ayrim mamlakatlarda mazkur soliq turi XX asrning so'nggi 80-90 yillarida amalga kiritilgan. Xususan, Ya'וניiyada 1989 yilda, Kanadada 1990 yilda, Rossiyada 1992 yildan amal qilmokda. ***O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i mustaqillikka erishilgandan so'ng, yahni 1992 yil 1 yanvardan amaliyotga kiritilgan. U bilvosita soliq bo'lib, tovar va xizmatlar narxiga kiritiladi va tegishlicha, byudjetga xaridorlar, buyurtmachilar va mijozlar mablag'lari hisobidan to'lanadi. Demak, ko'shilgan qiymat solig'i tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish hamda ularni realizatsiya qilish va O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar, ishlar, xizmatlar im'ort qilish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratishdir.***

Qo'shilgan qiymat solig'i tovar, ish, xizmatlar ustiga qo'yilganligi uchun egri soliqlar qatoriga kiritiladi, yuzaki qaraganda uning to'lovchisi mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxona, tashkilot va birlashmadek tuyuladi. Aynan ular qo'shilgan qiymat solig'ini huquqiy to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Soliq idoralari mazkur soliqni o'z vaqtida va to'liq byudjetga o'tkazishni ulardan talab qiladilar. Aslida esa korxona, tashkilot va birlashmalar qo'shilgan qiymat solig'ini mahsulot, ish, xizmatni sotib oluvchi korxona, tashkilot va birlashmalar sotib olgan mahsulot, ish, xizmat ustiga qo'yib yuboradilar. Demak, soliqning haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatni istehmol qiluvchi korxonalaridir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali aholiga yetib boradi va oxirgi to'lovchi istehmolchilar bo'lib hisoblanadi.

2. Qo'shimcha qiymat solig'i to'lovchilar, soliq solish ob'ekti va bazasi


SHu o'rinda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar, soliq solish ob'ekti va bazasini aniqlashtirib olish muhimdir.



Notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z a'zolari o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi. Unga byudjet tashkilotlari, shu jumladan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat, notijorat tashkilotlari, shu jumladan Respublikada davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat, notijorat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kiradi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti va bazasini aniklab olish, mazkur soliq to'lovi yuzasidan hisob-kitob ishlarini to'g'ri va aniq yuritishga imkoniyat yaratadi.

Soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlar, ishlar, xizmatning qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi. Turli yo'nalishlardagi faoliyatlar bo'yicha, xususan tovar, ish, xizmatlar tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, qurilish, qurilish-montaj va tahmirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar kabilar bo'yicha soliq solish bazasini aniqlash Soliq kodeksining 204-moddasiga ko'ra amalga oshiriladi.



Aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aktsiz solig'ining summasi kiritiladi. Soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatishlar kiritish mumkin. U quyidagi holatlarda ro'y beradi.

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shakllari o'zgarganda;
- 3) narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish qo'shimcha hisobvaraqa-faktura va yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlar yuz berganligini tasdiklovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Tovarlarni im'ort qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni im'ort qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aktsiz solig'ining, bojxona bojlarining summalari kiradi.

Soliq to'lovchining tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborot bo'lib hisoblanadi.


3. Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi va imtiyozlar

Qo'shilgan qiymat solig'i O'zbekistonda amal qilgan davr ichida uning stavkasi 1992 yilda 30 foizdan 2010 yilda 20 foizga pasaydi. **20 foizli stavka barcha xo'jalik yurituvch' sub'ektlar uchun umumiy stavka hisoblanadi.** Bundan tashqari, respublikada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nolli soliqqa tortish qo'llaniladi, bu ham o'ziga xos imtiyozdir. Agar soliqdan ozod etishning asosiy xususiyati byudjetga mazkur soliqni to'lash majburiyatlaridan ozod etish bo'lsa, nolli soliq solishda qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborotga hisoblab yozilmaydi, lekin xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xaridlar bo'yicha soliq summalarini hisobga olish huquqiga egadirlar. Qo'shilgan qiymat solig'ining nolli stavkasi birinchi marotaba Niderlandiyada eks'ortga mahsulot yetkazib berishlarni amalga oshirishda joriy etilgan. Bugunga kelib, Yevro'a Ittifoqining deyarli barcha mamlakatlarida qo'llanib kelinmokda. O'zbekistonda nolg' darajali stavka 1998 yilda joriy etilgan.

Tovarlarni chet el valyutasida eks'ortga realizatsiya qilish (paxta tolasi va lint bundan mustasno) oborotiga nolg' darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarning eks'ort qilinganligi tasdiqlanmagan taqdirda, mazkur tovarlarni realizatsiya qilish oborotiga belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha nolg' darajali soliq solish quyidagi hollarda qo'llaniladi:



CHet el tarafi o'zarolik printsi'iga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va mahmuriy-texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga, ishlarga, xizmatlarga nolg' darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga, ishlarga, xizmatlarga nolg' darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga, agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa, nolg' darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga, agar keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq «erkin muomalaga chiqarish» rejimiga joylashtiriladigan bo'lsa, belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Xalqaro yo'nalishda tashishlarda ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga nolg' darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi:

- tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish;
- yo'lovchilar, bagajlar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish.

SHuningdek, aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar uchun ham nolg' darajali qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Suv tahminoti, kanalizatsiya, issiqlik tahminoti, gaz tahminoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan ana shunday xizmatlarga nolg' darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarning katta guruhi iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga qaratilgan. Bular jumlasiga uy-joy kommunal xizmatlar, shahar yo'lovchi transporti uchun haq (taksidan tashqari), dafn byurolari, qabristonlar kabilardan qo'shilgan qiymat solig'i undirilmaydi.

Imtiyozlarning yana bir guruhi ijtimoiy yo'nalishga ega. Qo'shilgan qiymat solig'i sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga, dam olish muassasalariga yo'llanmalar, sayohat-ekskursiya yo'llanmalari, s'ort muassasalaridan foydalanish, bolalar maktabgacha muassasalarini qarash hamda bemor va qariyalarga qarab turish va hokazo xizmatlar qiymatidan undirilmaydi.

Faoliyatning ayrim sohalariga taalluqli bo'lgan imtiyozlarni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda bevosita o'quv-ishlab chiqarish va tarbiyalash jarayoni bilan bog'liq xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan.

Muayyan imtiyozlar ilmiy faoliyatni rag'batlantirish uchun ham belgilangan.

Qishloq xo'jalik sektoriga ham imtiyozlar berilgan bo'lib, unga ko'ra o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahuloti qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan. Mazkur imtiyozni qo'llash chog'ida u agrokorxonalarga emas, balki o'zi yetishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotini sotadigan korxonalarga berilishini hisobga olish lozim. SHuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ayrim moliyaviy xizmatlar, xususan, kreditlar, zayomlar bo'yicha foizni hisoblab chiqarish va undirish, bank kafolatlari berish, de'ozitlar qabul qilish, banklarda hisobvaraqlarni ochish va yuritish, to'losh operatsiyalar o'tkazish, milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar, lombard operatsiyalari kabilardan uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lanmaydi.

Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlarning ayrim turlari qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan. Xususan, sug'urta bozorining professional ishtirokchisi shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari, vositachilik haqi, qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovni, uchinchi shaxslardan subrosatsiya (regress) tartibida talab qilish bo'yicha daromadlar kabilarni olsa qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod bo'ladi.

Sug'urta qildiruvchi esa sug'urta to'lovi, sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar kabilarni olsa qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

SHuningdek, ayrim tovarlarni im'ort qilish xususan, jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan narxlari doirasida olib kirilayotgan tovarlar, inson'arvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar, xayriya yordami maqsadida olib kiritilayotgan tovarlar, dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqarish uchun olib kirilayotgan xom ashyo kabilari qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod etilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar, shu jumladan bank kafolatlari berish;
- 2) de'ozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;
- 3) to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkassa bo'yicha operatsiyalar;
- 4) milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar (numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno);
- 5) yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar de'o-hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil de'ozitariylarini ochish hamda yuritish kabilari.

4. Qo'shilgan qiymat solig'ini rasmiylashtirish. Hisobvaraq-faktura

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovlarining amalga oshirilishida hisobvaraq-fakturalarni to'g'ri to'lg'azilishi alohida ahamiyatga ega. ***Hisobvaraq-faktura qat'iy hisobot hujjati bo'lib hisoblanadi.***

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni va ko'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan yuridik shaxslar tovarlar, ishlar, xizmatlarni oluvchi shaxsga ayrim hollarni istisno qilgan holda hisobvaraq-faktura taqdim etishlari shart.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan hamda uni to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatmagan holda «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan shtam' bosadi yoki yozib qo'yadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo'lda tashishlar, transport-eks'editorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek tovar, ish, xizmatlarni uzluksiz yetkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar hisobot davrining oxirgi kunida bir marta hisobvaraq-faktura yozadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kalendar yili soliq davri deb hisoblanadi. Hisobot davri esa mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yil choragi, ularga mansub bo'lmagan korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun bir oy bo'lib hisoblanadi.

Tovar, ish, xizmatlarni sotib oluvchilarga nisbatan jarima solish qo'llanilmaydi va ular qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjet bilan qayta xisob-kitob qilmaydi.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarni yetkazib beruvchi soliq solinadigan bazaga uni kamaytirish yoki ko'paytirishga qaratilgan tuzatish kiritisa, mazkur tovar, ish, xizmatlarni oluvchi tomonidan tasdiqlanadigan qo'shimcha hisobvaraq-faktura tuziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobda turgan joydagi Davlat soliq xkzmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan to'shiriladi. Hisobotlar mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25 kundan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot to'shirilgan muddatda taqdim etiladi. Mikrofirmalar va kichik korxonalarga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan hisobotlar har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25 sanasidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Im'ort qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash bojxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruviga vaqtida amalga oshiriladi.

6-MAVZU. AKTSIZ SOLIG'I

6.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Aktsiz solig'ining mohiyati va vazifalari 2. Aktsiz solig'i to'lovchilar va uning stavkalarini 3. Soliq hisobotlarini taqdim etish 4. Aktsiz markasi
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Aktsiz solig'ining iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini tushuntirib berish, uni hisoblash va to'lash tartibi haqida bilimlar berish.	
pedagogik vazifalar: • aktsiz solig'ining mohiyati va vazifalarini tavsiflaydi; • aktsiz solig'i to'lovchilar va uning stavkalarini aniqlaydi; • soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini bayon etadi; • aktsiz markasi haqida tushunchalar beradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • aktsiz solig'ining mohiyati va vazifalarini bilib oladi; • aktsiz solig'i to'lovchilar va uning stavkalarini o'rganadi; • soliq hisobotlarini taqdim etish tartibi va muddatlarini farqlaydi; • aktsiz markasini tushunib oladi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihojlangan auditoriya

6.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 min)	2.1. Aktsiz solig'ining mohiyati va vazifalarini tavsiflaydi; 2.2. Aktsiz solig'i to'lovchilar va uning stavkalarini aniqlaydi; 2.3. Soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini bayon etadi; 2.4. Aktsiz markasi haqida tushunchalar beradi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (15 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlarini aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

6.3. O'quv materiallari

1. Aktsiz solig'ining mohiyati va vazifalari

Aktsiz solig'i iqtisodiy mohiyatiga ko'ra egri soliq hisoblanib, sotilayotgan mahsulot yoki xizmatlar bahosi ustiga ustama shaklida qo'yiladi va ularning pirovard to'lovchisi bo'lib istehmolchilar hisoblanadi.

Dastlab egri soliqlar ayrim tovar turlariga (tuz, tamaki, aroq mahsulotlari, gugurt, shakar va boshqa keng istehmol mollari) qo'yilgan. Vaqt o'tishi bilan tovar-'ul munosabatlari rivojlanishi natijasida soliqqa tortishning aktsiz shakli ko'roq qo'llanila bordi. Soliqqa tortishning turli usullari: aktsizga tortiladigan tovarlar xom-ashyosi yetishtiriladigan yer, so'ngra xom ashyo, keyinroq yarim tayyor mahsulotlar va nihoyat, soliq solishning asosiy ob'ekti bo'lgan tayyor mahsulotlarga nisbatan qo'llanilgan. O'z-o'zidan ma'lumki, soliqqa tortishning aktsizli shakli keng xalq ommasi istehmolidagi ommaviy tovarlarni soliqqa tortish jarayonidagina samara berishi mumkin bo'lgan.

Qadimda aktsizlarni boshqa nomlar bilan boj, yig'im yoki sodda qilib, soliq deb atashgan.

Aktsizlarning o'sha davrda amal qilgan soliqa tortish mexanizmi to'g'risida taxminiy ma'lumotlar mavjudligi uning ilk paydo bo'lgan davrini aniqlashga imkon bermaydi. Masalan, xalq tribunlari Tiberiy va Gay Grakxov (er.av.162-133 va 153-121 y) davrlarida Rim g'aznasiga qullarni ozod etishdan, shu bilan birga o'z shaxsiy istehmoli uchun zarur bo'lmagan tovarlarni dengiz orqali Rimga olib kelinishidan yig'img'lar tushib turgan.

Qadimgi Misrda firhavlarning XII-XIII sulolalari davrida (er.av.ikkinchi ming yillik) pivoga soliq solingan. Albatta, bu to'lovlar hozirgi talqindagi aktsizlar bo'lmasligi mumkin, lekin ularni aktsizlarning dastlabki namunalari sifatida ehtiborga olish lozimdir. Tarixiy manbalarga ko'ra Angliyada Kromvelg' davrida respublikaning yigirma yil amal qilishi davomida aktsizlarning ikki yuzga yaqin turi joriy etilgan. Bunda har xil turdagi ob'ektlar soliqa tortilgan. Masalan, poxol kukuni yoki yog' uchun quti idishlar shular jumlasidandir. O'tgan asrda Gollandiyada egri soliqlarning turlari shunchalik ko'' ediki, tarixchi de Vitta so'zlariga qaraganda, mehmonxonada tortiq qilingan baliq bo'lagiga 34 xil aktsiz to'g'ri kelgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jahondagi rivojlangan mamlakatlarda aktsizlar davlatning muhim daromadiga aylangan. Masalan, Frantsiyada va GFRda bu soliq byudjet daromadining 50 foiziga yaqinini, Buyuk Britaniyada - 38 foizini, Ya'oniyada - 16 foizini tahminlaydi.

Xullas, aktsiz solig'i uzoq davrlar mobaynida ishlab chiqarish va tovar-'ul munosabatlarining jadal rivojlanishi, aholi istehmol mollarning tarkibi ortib borishi natijasida ob'ektlari ko'lamini kengaytirib, davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbaiga aylandi.

Ko'' bosqichli qo'shilgan qiymat solig'idan farqli o'laroq aktsizlar byudjetga bir marta to'lanadi, mahsulotning barcha qiymatiga yoki mahsulot birligiga soliq solinadi.

Aktsizlar ikki xil vazifani bajaradi: birinchidan, u byudjet daromadlarining muhim manbasidir; ikkinchidan, talab va taklifni tartibga solish vositasi hisoblanadi, bahzi tovarlarni istehmol qilinishini cheklaydi.

Aholining kam tahminangan tabaqalariga soliq yukini kamaytirish uchun aktsizli tovarlar qatoriga odatda zeb-ziynat buyumlari (mo'ynalar, mashinalar, mebelg', zargarlik buyumlari va hokazolar) kiritiladi. Aktsizlar vositasida ijtimoiy zararli tovarlar s'irtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini istehmol qilish cheklanadi.

O'zbekistonda aktsiz solig'i 1992 yilda joriy etilgan asosan alkogolli ichimliklar, pivo, neftg' mahsulotlari, avtomobillar, zargarlik buyumlari, kumush qoshiqlar va sanchqilar, kumush idishlar, billur, mebelg', video- va audio-a'aratlar, yog'-moy mahsulotlari kabilar aktsiz solig'iga tortiladi.

Aktsizlar ko''incha ayrim mahsulotlar va tovarlarni istehmol qilishni barqarorlashtirish va ko''aytirmaslik maqsadida joriy etiladi hamda tovarlar o'rnini bosadigan mahsulotlarni bilvosita himoya qilishga qaratiladi. Masalan, pivo ishlab chiqariladigan mamlakatlarda vinoga aktsiz solig'i belgilanadi.

Aktsiz solig'ining mohiyatini ochib berish uchun u bajaradigan vazifalarni bilish muhim ahamiyatga ega. SHu nuqtai nazardan aktsiz solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bajaradigan vazifalariga ehtiborni qaratish lozim.

Birinchidan, aktsiz solig'i mamlakat byudjetining muhim daromad manbalaridan hisoblanadi. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham aktsiz solig'i daromadlarni tez va oson yig'ish imkoniyatlarini tug'diradi. Frantsuz iqtisodchisi F.Demezson tahkidlaganidek, «aktsizning o'zi barcha boshqa soliq tushumlari va undan ham ko''roqni berishga qodirdir».

Ikkinchidan, aktsiz osti tovarlari istehmolini cheklash (asosan ijtimoiy zararli tovarlar) orqali muayyan bozor doirasida talab va taklifni tartibga solish. Iqtisodiy o'sish jarayonini boshqarishda aktsiz osti tovarlar ro'yxatini belgilash orqali yal'i talab va taklifni egiluvchanligini tahminlaydi.


Uchinchidan, aktsiz solig'i orqali davlatning milliy bozorni himoya qilish vazifasi amalga oshiriladi. Bunda yuqori soliq stavkalaridan foydalaniladi

To'rtinchidan, aktsiz solig'i mono'ol mavqedagi tovar ishlab chiqaruvchi yoki aniq mahsulot turini progressiv soliqa tortish vazifasini o'taydi.

Beshinchidan, aktsiz solig'i aholini badavlat qatlamlari daromadlarini qayta soliqa tortish usuli hisoblanadi. Chunki aktsiz solig'i asosan nufuzli, qiymati yuqori (masalan, mashina, oltin buyumlar kabi) mahsulotlarga qo'llaniladiki, bunday tovarlarning asosiy istehmolchilari o'ziga to'q shaxslar hisoblanadilar.

2. Aktsiz solig'i to'lovchilar va uning stavkalari

Aktsiz solig'ini to'lovchilar — yuridik shaxslar, shu jumladan o'zlari ishlab chiqaradigan aktsizli tovarlarni sotadigan kichik biznes sub'ektlaridir. Aktsiz solig'ini yuridik va jismoniy shaxslar aktsizli tovarlarni chetdan olib kelish chog'ida ham to'laydilar.



Shuni qayd etish lozimki, aktsiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aktsiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan aktsiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Respublikada aktsiz solig'i ob'ekti amalga oshiriladigan operatsiyalarga asosan aks ettiriladi.

Aktsiz solig'i solinadigan ob'ektlarni aniqlashda amalga oshiriladigan operatsiyalar

Quyidagi operatsiyalar aktsiz solig'i solinadigan ob'ektdir	→	Aktsiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish. Shu jumladan: - tovarni sotish (jo'natish); - garovga qo'yilgan aktsiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish; - aktsiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish kabilar.
	→	Aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga hissa yoki pay badali tariqasila yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning hissasi sifatida topshirish
	→	Aktsiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan taqdirda yoki qayta tashkil etilgailigi, tugatilganliti munosabati bilan topshirish
	→	Aktsiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish. Shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish
	→	Ishlab chiqarilgan yoki qazib olingan aktsiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish
	→	Aktsiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga import qilish

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, AQSH, Kanada, Ya'oniya kabi rivojlangan mamlakatlarda natura ifodasidagi o'lchov birligiga mutlaq summada soliq stavkalarini qo'llashni nazarda tutadigan o'ziga xos aktsiz solig'iga tortish tizimi amal qilmoqda. Yevro'ada aktsiz solig'ini qo'llash tajribasi ham maxsus (qat'iy) stavkalar tomoniga o'zgarmokda. Bunday tartib MDH mamlakatlari - Rossiya, Ukraina, Moldova, Qirg'iziston, Qozog'iston va Ozarbayjonda ham qo'llanilmoqda.

Aktsiz solig'i bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlab olish alohida xususiyatga ega.

Aktsiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza uni naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlansa, foizlarda esa realizatsiya qilingan aktsiz to'lanadigan tovarlarning aktsiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, be'ul yoki boshqa tovar, ish, xizmatlarga ayirboshlash uchun beriladigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni to'shirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan baza bo'ladi.

Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aktsiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aktsiz solig'ining stavkalari foizlarda belgilangan im'ort qilinayotgan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Aktsiz solig'i to'lovchilar tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda, bitim shartlari o'zgartirilganda, baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylovdan foydalanganda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish huquqiga ega.

3. Soliq hisobotlarini taqdim etish

Soliq davri mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yil choragi, ular jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun bir oy qilib belgilangan.

Soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- soliq to'lovchilari bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay;

- ular jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Hisoblangan soliq summasini byudjetga o'tkazish muddatlari va uning o'tkazilishini tahminlash aktsiz solig'i to'lovchi sub'ektlar zimmasiga yuklatiladi va ular tomonidan amalga oshiriladi.

Demak, aktsiz solig'i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy yilning 13-kunidan kechiktirmay joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;

- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;

- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Im'ort qilinadigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i tovarlarning bojxona rasmiylashtiruviga qadar yoki bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida im'ort qiluvchi tomonidan to'lanadi.

4. Aktsiz markasi haqida

1996 yil 1 oktyabrdan boshlab Respublikamizda aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz markalarini qo'llash tartibi amal qila boshladi.

SHunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga im'ort qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogoli ichimliklar Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aktsiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

Respublikamizda aktsiz markalarini joriy qilishdan asosiy maqsad nima?

Mamlakatimiz hududida s'irtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaradigan barcha turdagi korxonalar ustidan davlat nazoratini o'rnatish.

Respublikamiz hududiga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan s'irtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarining sifatini o'rganish va ular ustidan qat'iy nazorat o'rnatish.

Har xil yo'llar bilan g'ayriqonuniy ravishda mahsulot ishlab chiqarilishi, chetdan olib kelinishi va sotilishi oldini olish.

Barcha ishlab chiqarilayotgan va chetdan olib kirilayotgan mahsulotlardan to'la aktsiz solig'i undirilishini tahminlashdan iborat.

Aktsiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan im'ort qilinadigan aktsiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aktsiz solig'i aktsiz markalari olingunga qadar to'lanadi.

7-MAVZU: YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR

7.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 1 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq to'lovchilari 2. Yer qa'ridan foydalanuvchi sub'ektlar uchun soliq solish ob'ekti va bazasi 3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun maxsus to'lovlar
4. O'quv mashg'ulotining maqsadi: Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqning iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini tushuntirib berish, uni hisoblash va to'lash tartibi haqida bilimlar berish.	
pedagogik vazifalar: • yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq to'lovchilarini tavsiflaydi; • yer qa'ridan foydalanuvchi sub'ektlar uchun soliq solish ob'ekti va bazasini aniqlaydi; • yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun maxsus to'lovlarni bayon etadi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq to'lovchilarini bilib oladi; • yer qa'ridan foydalanuvchi sub'ektlar uchun soliq solish ob'ekti va bazasini organadi; • yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun maxsus to'lovlarni bilib oladi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihojlangan auditoriya

7.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (30 min)	2.1. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq to'lovchilarini tavsiflaydi. 2.2. Yer qa'ridan foydalanuvchi sub'ektlar uchun soliq solish ob'ekti va bazasini aniqlaydi. 2.3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun maxsus to'lovlarni bayon etadi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (5 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlari aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

7.3. O'quv materiallari


1. Yer qa'ridan foydalanuvchi soliq to'lovchilar

Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun to'lanadigan soliqlar soliq amaliyotida alohida o'rin tutadi. Chunki tabiiy resurslar cheklanganligi, ularni kelgusi avlod uchun qoldirish kabi ko'lab muammolar mavjudki, bularni faqat ulardan samarali foydalanish, avaylab-asrash kabi yo'llar hamda oqilona soliq siyosati orqaligina saqlab qolish mumkin.

Respublika hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xom ashyodan va texnogen mineral hosilalardan foydali kom'onentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan hamda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy

shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar sifatida qayd etiladi.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan soliqlar va maxsus to'lovlar



Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchi sub'ektlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- yer qa'ridan foydali qazilmalar kavlab olayotgan mineral xom ashyodan va texnologiya mineral hosilalardan foydali kom'onentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;
- foyda qazilmalardan foydali kom'onentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

Yer qa'ridan foydalanuvchi sub'ektlar uchun soliq solish ob'ekti va bazasi

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti ko'rib olingan tayyor mahsulotning hajmi hisoblanadi. Tayyor mahsulotlar ro'yxati Respublika prezidenti qarori bilan belgilanadi. Mazkur soliq to'lovining o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilarga berilgani yer uchastkalari doirasida ko'rib olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foyda qazilmalar soliq solish ob'ekti bo'lmaydi. Ularning ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun mahsuldor qatlamga qayta xaydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi ham soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun ko'rib olingan tayyor mahsulot hajmining hisobot davriga o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni aniqlash davri kalendar yili bo'lib, hisobot vaqti quyidagilardir:

- mikrofimalar va kichik korxonalar uchun yil choragi;
- ular jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun bir oy;
- jismoniy shaxslar uchun kalendar yilidir.

Mazkur soliq turi bo'yicha soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblanadi va soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi Davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- mikrofimalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay;
- ular jumlasiga kirmaydiganlar tomonidan har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay;
- jismoniy shaxslar tomonidan yilda bir marta, keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun maxsus to'lovlar

Yer qa'ridan foydalanuvchilar tarkibida maxsus to'lovlar to'lovchi sub'ektlar majud bo'lib, ulardan biri qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar hisoblanadi. Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar qanday sub'ektlar bo'lib hisoblanadi.

Ularga;


- ayrim foyda qazilmalarki ko'rib olishni amalga oshiruvchi sub'ektlar;
- foyda qazilmalardan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar.

Qo'shimcha foyda solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti soliq to'lovchining hisobot davridagi daromadining bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun maxsus to'lovlarning yana bir turi bonuslar hisoblanadi. ***Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdur.***

Yer qa'ridan foydalanuvchilar to'laydigan bonuslar



Shuni qayd etish lozimki, davlat boshqaruv organlari bonuslar to'lamaydilar.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdur.

Imzoli bonus litsenziya olingan kundan ehtiboran soliq to'lovchi tomonidan 30 kundan kechiktirmay byudjetga to'lanadi va bu hakda hisobga olish joyidagi Davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

Tijoratbo' to'ilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbo' to'ilmasi uchun to'lanadigan to'lovdur. Mazkur to'lov, agar avval ushbu kon bo'yicha tijoratbo' to'ilma bonusi to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kavlab olish huquqini olgan yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

Agar foydali qazilma konlarini keyinchalik kovlab olish nazarda tutilmaydigan qidiruv o'tkazilsa tijoratbo' to'ilma bonusi to'lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zahiralar hajmi soliq solish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Foydali qazilmalar zahiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir.

Tijoratbo' to'ilma bonusi soliq solinadigan bazadan va bonusning belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda aniklanadi.

Mazkur maxsus to'lov bo'yicha hisob-kitob soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi Davlat soliq xizmati organlariga vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zahiralarini tasdiqlagan kundan ehtiboran 25 kundan kechiktirmay soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Tijoratbo' to'ilma bonusini to'lash vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zahiralarining kundan qazib olinadigan hajmini tasdiqlagan kundan ehtiboran 90 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

8-MAVZU. SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

8.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 1 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning mohiyati hamda to'lovchilar 2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti va soliq stazkasi 3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar
5. O'quv mashg'ulotining maqsadi: Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini tushuntirib berish, uni hisoblash va to'lash tartibi haqida bilimlar berish.	
pedagogik vazifalar: • suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning mohiyati hamda to'lovchilarni tavsiflaydi; • suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti va soliq stazkasini aniqlaydi; • suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlarni bayon etadi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning mohiyati hamda to'lovchilarni bilib oladi; • suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti va soliq stazkasini organadi; • suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlarni bilib oladi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihojlangan auditoriya

8.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi


Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (30 min)	2.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning mohiyati hamda to'lovchilarni tavsiflaydi; 2.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti va soliq stazkasini aniqlaydi; 2.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlarni bayon etadi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (5 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlarini aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

8.3. O'quv materiallari


1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning mohiyati hamda to'lovchilar

Jahon amaliyotida suv resurslaridan foydalanish uchun soliq undirish mazkur tabiat inhom etgan resursdan oqilona foydalanksh zaruriyatidan kelib chiqadi. Chunki suv — yorug' dunyoning eng betakror mo'hjizasi. U Alloh taoloning beminnat nehmati, tabiatning bitmas-tuganmas boyligi degan iboralar dilimizga shu qadar singib ketganki, oqibatda uni avaylab-asrash, saqlash, undan samarali foydalanish degan masalalarga ehtibor kamaygan. SHu sababli mamlakat miqyosida suvdan foydalanishning yaxlit tizimi yaratilsa, undan foydalanish samaradorligi ortadi. Mazkur

tizim suvga dahldor nimaiki bo'lsa barcha-barchasini qamrab oladi: suv manbalaridan tortib, suv boyligining butun hudud bo'ylab harakatlanishi, yahni oqishi, foydalanilishi, sarfiyoti, isrofi, toki xonadonda, oshxonalarimizda idish-tovoqni yuvishga ketayotganicha, shaharlarimiz maydonchalaridagi favvoralaridagi suv sarfigacha - hamma-hammasini qamrab oladi. Bu esa suvni tovar sifatida amal qilishiga va suv uchun to'lovlar joriy etilishiga asos bo'ladi. SHu tariqa suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovlari amal qiladi.



Shuni ta'kidlash lozimki aholi punktlarining suv tahminoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar hisoblanadilar.



Eslatib o'tamiz, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullangan taqdirda belgilangan tartibda tadbirkorlikda foydalanilgan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

SHuningdek, yagona soliq to'lovi to'lashga o'tgan kichik korxonalar, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lamaydilar.

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti va soliq stavkasi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish ob'ekti

Yer usti manbalariga quyidagilar kiradi	Yer osti manbalariga quyidagilar kiradi
daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari	artezian quduklari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqarib olinadigan suvlar

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'lchagich asboblarning ko'rsatkichlari asosida aniklanadi.

Suvdan o'lchagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suvdan foydalanish limitlaridan, suv istehmolining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini tahminlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniklanadi.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Suvdan foydalanuvchilar turlariga qarab soliq stavkasi yer usti va yer osti manbalariga alohida belgilanadi.

SHuni qayd etish lozimki, soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodo'rovod tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar vodo'rovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni Davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 fevraliga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari esa ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar ehtiboriga yetkazadilar.

2014 yil suvdan foydalanuvchi sub'ektlar uchun solishtirma soliq stavkasi

To'lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so'm)			
	Er usti suv resurslari manbalari		Er osti suv resurslari manbalari	
	2013	2014	2013	2014
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-4-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari)	43,0	51,6	54,6	65,5
2. Elektrostantsiyalar	12,4	14,9	18,5	22,2
3. Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	23,6	28,3	30,5	36,6
4. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalanadigan jismoniy shaxslar	2,3	2,8	2,6	3,1

Hisobot davri turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun turli darajada belgilanadi. Xususan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining 50 baravaridan ko'ni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay. Bunday tartib qishloq xo'jalik korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalarga mansub emas.

To'lanadigan soliqning umumiy summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining 50 baravaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25 kunigacha, yil yakunlari bo'yicha esa yilning moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan - yilda bir marta hisobot davrining 15 dekabrighacha, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan esa — yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha hisobot taqdim etiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari va yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun kalendar yil hisobot davri bo'lib hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaliklariga Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay to'shiriladi.

Soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanish solig'i stavkasi O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori bilan belgilanadi.

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i bo'yicha imtiyozlar

Ayrim toifadagi soliq to'lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovlarida imtiyozga ega bo'lib hisoblanadi. Bular:

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar (Savdo, vositachilik, tahminot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar bunday imtiyoz huquqiga ega emaslar. SHu narsani qayd etish lozimki, mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga faqat shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi);

- suv uchun byudjetga soliq to'lagan yuridik shaxslardan suv olgan istehmolchilar;

- birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv istehmolchilari;

- ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar - tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan ehtiboran imtiyozga ega bo'ladi. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirish orqali ham soliq to'lovchilar uchun imtiyozlar qo'llaniladi.

9-MAVZU. YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

9.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 1 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Yuridik shaxslarning mol -mulk solig'ining mohiyati va soliq to'lovchilar 2. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar 3. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ining xususiyatlari 4. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar 5. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini to'lovchilarni hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibi
O'quv mashg'ulotining maqsadi: yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ining mohiyati va soliq to'lovchilarni tavsiflash, soliqlar boyicha imtiyozlarni aniqlash, mol-mulk solig'ini to'lovchilarni hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibini tushuntirish	
Pedagogik vazifalar: • yuridik va jismoniy shaxslarning mol -mulk solig'ining mohiyatini tushuntiradi; • yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i boyicha imtiyozlarni aniqlaydi; • soliqlarning mohiyatini ochib beradi; • mol-mulk solig'ini to'lovchilarni hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibini tushuntirib beradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ining mohiyati va iqtisodiy mazmunini tushunib oladi; • yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i boyicha imtiyozlarni bilib oladi; • mol-mulk solig'ini hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibi haqida tushunchalarga ega bo'ladi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

9.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (30 min)	2.1. Mavzuni yoritishda muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ining mohiyatini tushuntirib beradi. 2.3. Yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i boyicha berilgan imtiyozlarni yoritib beradi. 2.4. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ining xususiyatlari ochib beradi. 2.5. Mol-mulk solig'ini to'lovchilarni hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibini tavsiflab beradi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (5 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlari aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

9.3. O'quv materiallari

1. Yuridik shaxslarning mol -mulk solig'ining mohiyati va soliq to'lovchilar

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, asosan, joylardagi mahalliy byudjetning daromadlar qismini shakllantiradi. Jahon amaliyotida mol-mulk solig'i va shu kabi resurs to'lovlarini ma'lum darajada oshirish hisobiga byudjet daromadlarini ko'paytirish tajribasi qo'llanilib keladi. Ikkinchi tomondan daromadlardan olinadigan soliq miqdorini kamaytirib borish tendentsiyasi ham o'zini oqlab kelmoqda.

Soliq amaliyotida mol-mulk solig'i qanday maqsadlarda joriy etilganligini tushunib olish muhimdir. Xususan, mamlakatimizda mazkur soliq turini joriy etishdan quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

-korxonalar tomonidan o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish va kuchaytirish, yahni resurslardan foydalanish samaradorligiga erishish;


-xo'jalik yurituvchi sub'ektlar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirish.

Mol-mulk solig'i moliyaviy nuqtai nazardan rag'batlantiruvchilik va nazorat qilish, mahalliy byudjetlarni to'ldirish nuqtai nazaridan esa fiskal vazifalarni bajaradi.

Mol-mulk solig'i qayd etilganlardan tashqari, mavjud ishlab chiqarishni ekstensiv kengaytirishni jilovlash vazifalarini hal qilishga ham samarali tahsir etadi. Turli sabablarga ko'ra, daromadlarning bir qismi har doim daromad solig'iga tortilishdan «qochib qoladi». Ammo moddiy boylikka aylangach, mol-mulk solig'iga tortilmasdan iloj yo'q. Sarmoyalarni soliqqa tortish ulardan samarali foydalanishni rag'batlantiradi, ortiqcha zahiralardan samarali foydalanishga xizmat qiladi va o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorining tashknl to'ishini jadallashtiradi. Oqibatda soliqning rag'batlantiruvchilik vazifasi kelib chiqib, u ishlab chiqarishda mol-mulkdan oqilona foydalanish hamda asosiy fondlarning ishlatilmay turgan hajmidan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Hozirgi sharoitda mulk solig'idan keladigan daromad salmoqli darajada bo'lmasada, bu soliq soliq tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. SHuningdek, mol-mulk solig'i davlat byudjetining daromadlar qismini tahminlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Mulk solig'ining asl maqsadi davlat byudjeti va korxonalar manfaatlariga xizmat qilishdan iborat.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmi bu — yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda bevosita ishtirok etuvchi elementlar majmui hisoblanadi. U soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiyozlari, soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iboratdir.



Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan bazaga quyidagilar kiradi	
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Ularni qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.	Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha – tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati

2. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar

Soliq amaliyotida soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar tizimi nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagi ob'ektlarni qiymatiga kamaytiriladi. Xususan,

- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlari. Uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi: uy-joy fondi, vodo'rovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari ulardagi inshootlar bilan, kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

- madaniyat va sanhat, ta'lim, sog'liqni saklash, jismoniy tarbiya va s'ort, ijtimoiy tahminot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlari;

- yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umumta'lim o'quv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulki;

- qishloq xo'jaligi (o'simlikchilik, chorvachilik, baliqchilik) mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulk;

- sug'orish va kollektor-drenaj tarmokdari ob'ektlari;

- aloqa yo'ldoshlari;

- kredit hisobidan olingan asbob-uskuna, uni foydalanishga to'shirilgan paytdan boshlab besh yilga, lekin kreditni uzish uchun belgilanganidan ko'ra bo'lmagan muddatga;

- tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlar (Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi);

- umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobilg' yo'llari, magistralg' tubo'rovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ko'rsatilgan ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

- konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlari;

- lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;

- soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik bo'lgan ob'ektlar;

- shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalari (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metro'oliten poezdlari);

- tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga tekin foydalanishga berilgan asbob-uskunalar (foydalanish davriga);

- telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalari;

- ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlar, soliq solinadigan bazasi besh yillik muddatga kamaytiriladi. Yangi texnologik jihozlar olingan (im'ort qilingan) paytdan ehtiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin to'shirilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi mol-mulk solig'ini to'lash majburiyatlari imtiyoz qo'llaniladigan butun davr uchun tiklangan holda bekor qilinadi.

Ayrim toifadagi yuridik shaxslar mol-mulki soliq solishdan ozod qilinadilar. Bular

jumlasiga:

-sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy tahminot, xalq ta'limi, madaniyat va sanhat tashkilotlari;

-uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash va undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya-tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar va shaharchalarni tashqi yoritish, vodo'rovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoklardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o't o'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari;

-nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar (Savdo, vositachilik, tahminot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shugullanuvchi yuridik shaxslarga imtiyoz ko'zda tutilmaydi. Ko'rsatilgan imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi);

-yangi tashkil etilgan korxonalar - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan ehtiboran ikki yil mobaynida (Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek, boshqa korxonalar hududida shu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalaridan foydalangan hamda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi);

-ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini -yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan ehtiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha soliq davri kalendar yili hisoblanadi. Yil choragi esa hisobot davridir.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish rezidentlar tomonidan hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari boshqa sub'ektlar har oyda joriy to'lovlarni to'laydilar. Joriy to'lovlar summasi tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining 1/12 qismi miqdorida belgilanadi.

Byudjetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 25 kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi Davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari

№	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan % larda soliq stavkasi	
		2013 yil	2014 yil
1	Yuridik shaxslar	3,5	4

Shuni qayd etish lozimki, belgilangan muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar ko'rtirilgan stavka bo'yicha to'lanadi.

3. Jismoniy shaxslarning mol-mulki solig'ining xususiyatlari

Jismoniy shaxslarning mol-mulki solig'i — bu bevosita soliqlar tartibiga kirib, moddiy nehmatlarni qo'lga kiritish va jamg'arish jarayonida undiriladi. U real soliq hisoblanadi, Chunki real soliqlar bilan mulkdan olinadigan daromadlar soliqqa tortiladi. («geal» atamasi, inglizcha mulk tushunchasini bildiradi).

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mahalliy soliqlar tarkibiga kiradi. Ushbu soliq iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, byudjet daromadlarini shakllantirish bilan birga, jismoniy shaxslar tasarrufida bo'lgan mol-mulk ob'ektlaridan samarali foydalanishni rag'batlantiradi.

Soliq amaliyotida o'z egaligida soliq solinadigan mulkka ega bo'lgan barcha fuqarolar, shu jumladan, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilar bo'lib hisoblanadi. Ular o'zlari tasarruf etib, foydalanayotgan barcha mol-mulklar uchun soliq qonunchiligida belgilangan tartib bo'yicha soliq to'lovlarini amalga oshiradilar. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs mol-mulk solig'ining to'lovchisi hisoblanadi. Buning uchun eng avvalo soliqqa tortiladigan ob'ekt (mol-mulk) aniqlab olinadi. ***O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan turar-joylar, kvartiralar, dala-hovli, imoratlar, garajlar va boshqalar, inshootlar soliq solish ob'ekti hisoblanadi.***

Jismoniy shaxslarning mol-mulki O'zbekiston Respublikasi prezidenti qarori bilan belgilangan stavkalar asosida soliqqa tortiladi va Respublika Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan soliq to'lovchilarga yetkaziladi. ***Mol-mulk solig'ining muhim xususiyati shundan iboratki, u joylashtan o'rnidan qat'iy nazar, Respublikaning barcha hududlarida bir xil stavkada undiriladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulk, shahar va tumanlarda joylashgan Yer kadastr xizmati tomonidan baholanadi.***

Er kadastr xizmati mol-mulkni baholagandan keyin soliq idoralariga ushbu ma'lumotlarni taqdim etadilar. Soliq idorasining mutaxassislari baholangan mol-mulk qiymatini O'zbekiston Respublikasi prezidenti qarori bilan belgilangan stavkalar asosida to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini hisoblab chiqadilar.

2009 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslar tomonidan mol-mulk solig'ini to'lashda qisman o'zgarish bo'ldi. SHuni tahkidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2008 yil 29 dekabrda pQ-1024-sonli qarorining 17-ilovasiga asosan mol-mulk solig'ining stavkasi mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan oldingi yil darajasida saqlab qolindi. Ammo mol-mulk solig'ining qiymati mulkni qayta baholash hisobiga ma'lum darajada o'zgardi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 274-moddasiga asosan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiya qiymati jismoniy shaxslarning mulk solig'ini to'lovchilar uchun soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan bino va inshootlarning umumiy qayta baholanishi oxirgi marta 1998 yilda o'tkazilgan edi. SHundan so'ng mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga tuzatishlar kiritish muntazam amalga oshirilmadi. SHulardan kelib chiqqan holda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini ko'chmas mulk qiymatining o'sishini hisobga olgan holda soliqqa tortish bazasini aniqlash amalga oshiriladi.

Unga ko'ra jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan bino va inshootlarning 1998 yilgi holatidagi inventarizatsiya qiymatiga 2009 yil 1 yanvardan ehtiboran 8,57 tuzatish koeffitsienti kiritilgan.

SHu o'rinda O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2009 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2010 yil makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi pQ-1245-sonli qaroriga ko'ra mulk huquqi asosida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan soliqqa tortiladigan mulkning inventarizatsiya bahosiga nisbatan soliq hisoblanganda hisob-kitoblar 1,1 tuzatish koeffitsienti asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2009 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2010 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1245-sonli qarorining 18-ilovasiga ko'ra agar jismoniy shaxsning mol-mulki baholanmagan bo'lsa, uning shartli qiymati belgilanadi. Bu summa Toshkent shahri va viloyat markazlarida 2010 yil 1 yanvardan 18480,0 ming so'm, boshqa

shaharlar va qishloq joylarda 8030,0 ming so'm qilib belgilangan.

2014 yilda fuqarolar mol-mulki uchun yuqoridagi qarorga asosan quyidagi soliq stavkalari belgilangan.

Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi

№	Soliq solinadigan obyektning nomi	Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (%da)
1.	Turar joylar, kvarteralar (shaxarlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari bundan mustasno) dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	1,2
2.	Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joy va kvarteralar:	
3.	200 kv. m dan oshiq va 500 kv. m gacha bo'lgan	1,4
4.	500 kv. m dan oshiq bo'lgan	1,8

Misol. Kadastr tomonidan fuqaroning uy-joyi 5,0 mln. so'mga baholangan. Ushbu qiymatdan 0,5 foiz miqdorida mulk solig'i hisoblanadi ($5,0 \times 1,2 = 25,0$ m.so'm). Ushbu fuqaro 25 ming so'm mol-mulk solig'i to'laydi.

Agar mol-mulk baholanmagan bo'lsa, prezidentning 2013 yil 25 dekabrda PQ-2900-sonli qarorning 18-ilovasiga asosan shartli baho qo'llaniladi. Bu summa viloyat markaz-larida ($18480,0 \times 0,5$) = 92400 so'm, boshqa shahar va qishloqlarda ($8030,0 \times 0,5$) = 40130 so'mni tashkil etadi.

Foydalanishida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan pensionerlar uchun imtiyoz ko'zda tutilgan bo'lib soliq solinmaydigan eng kam miqdor umumiy maydonning 60 kv.metr hajmida belgilab qo'yilgan. Soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan pensionerlar uchun soliqni hisoblab chiqarganda, mol-mulk solig'i soliq solinmaydigan eng kam miqdordan oshadigan maydondan to'lanadi. Bunda soliq solinmaydigan eng kam miqdor summasini aniqlash uchun mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati mol-mulk maydonining umumiy miqdoriga bo'linadi va 60 kv.metr (soliq solinmaydigan eng kam miqdor) ko'rsatiladi. Olingan natija mol-mulkning inventarizatsiya qiymatidan chiqariladi.

Masalan, mulk huquqida pensionerga tegishli bo'lgan mol-mulkning umumiy inventarizatsiya qiymati 2750000 so'mni tashkil etadi, mol-mulk umumiy maydonining miqdori - 200 kv.metr, bu holda byudjetga to'lanadigan soliq summasi:

$$(2750000 - (2750000/200) \times 60) \times 0,5\% = 9625 \text{ so'mni tashkil etadi.}$$

Jismoniy shaxslar tomonidan turar-joy fondi ob'ektlari noturarjoy fond toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturarjoy ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bilan undiriladi. Masalan, noturar joy fondi toifasiga o'tkazilgan xonadonning umumiy qiymati 2 mln 500 ming so'mni tashkil etsa ($2500000 \times 3,5\%$) = 87500 so'm soliq to'lanadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ yahni kadastr xizmati tomonidan belgilanadigan soliq solish ob'ektlarining inventarizatsiyadan o'tkazilgandagi qiymati soliq to'lovchilar uchun soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Agar jismoniy shaxslarning mol-mulki baholanmagan bo'lsa, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan baza sifatida olinadi.

Bir kishi bir nechta soliq solish ob'ektiga ega bo'lsa, soliq har bir ob'ekt bo'yicha alohida hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan imtiyoz huquqiga oid fuqaroda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqi paydo bo'lgach, u ushbu huquqni tasdiqlovchi barcha zaruriy hujjatlarni soliq ins'ektsiyasiga mustaqil ravishda taqdim qilishi lozim.

Bunda shuni ehtiborga olish kerakki, imtiyozga ega shaxsning bir nechta soliq solish ob'ekti, masalan, kvartirasi, dala hovlisida imorati mavjud bo'lsa, imtiyozlar mol-mulk egasining tanloviga binoan faqat bir ob'ektagina taalluqli bo'ladi, qolgan ob'ektlar bo'yicha esa u belgilangan tartibda soliqlarni to'lashi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi shaxslarning foydalanuvchi bo'lgan mol-mulkka soliq solinmaydi:

- O'zbekiston qahramoni, Sovet Ittifoqi qahramoni, Mehnat qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali SHuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarga;

- 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarga;

- o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarga;

- CHernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolarga (shu jumladan vaqtincha yo'llangan yoki xizmat safariga yuborilgan shaxslar);

- qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida (60 kv.m.) pensionerlarga;

- I va II guruh nogironlariga;

7) sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoxud shikastlanganligi oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli vafot etgan harbiy xizmatchilar ota-onalari va rafiqalariga.

Yuqorida qayd etilgan imtiyozlar mulkdorning tanloviga binoan faqat bir mol-mulk ob'ekti uchun beriladi.

Nazarda tutilgan imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoki yuridik shaxsga hamda yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Bunday holda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda, ya'ni 3,5 foiz miqdorida amalga oshiriladi.

4. Jismoniy shaxslarning mol-mulki solig'ini to'lovchilarini hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibi

Soliq to'lovchilarni hisobga olish Davlat soliq xizmati organlari tomonidan texnik inventarizatsiya bo'yicha hududiy kadastr byurolaridagi imoratning egalari to'g'risida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga muvofiq tumanlar va shaharlar bo'yicha har yilning 1 yanvar holatiga binoan amalga oshiriladi.

SHuni qayd etish lozimki, soliq to'lovchini ro'yxatga olish, soliq summasini hisoblab chiqarish va to'lov xabarnomalarini soliq to'lovchilarga taqdim etish vazifalarini uchastka soliq ins'ektorlari bajaradi.

SHu o'rinda jismoniy shaxslar tomonidan soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etilganda tegishli jazo choralari qo'llanilishini eslatib o'g'moqchimiz. Eng avvalo - jismoniy shaxslarning soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etganlik uchun javobgarligi 16 yoshdan boshlab vujudga keladi.

Mol-mulk solig'ini to'lovchi jismoniy shaxslarga to'lov muddati o'tkazilgan har bir kun uchun to'lov kunidan boshlab 0,05 foiz miqdorida ustama hisoblanadi. Ustama asosiy qarz bilan birga undirib olinadi. Ustama undirish soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi. To'lanmagan soliq summalarini sud orqali undirib olish tartibi ham qo'llaniladi.

Soliq to'lovchi soliq haqidagi qonun hujjatlarini bir necha marta buzgan taqdirda har bir qonunbuzarlikka nisbatan alohida moliyaviy jazo choralari qo'llaniladi.

Agar soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun moliyaviy jazoga tortilgan shaxs jazoni ijro etish tugagan kundan ehtiboran bir yil mobaynida soliq bo'yicha takroran qonunbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, u jazoga tortilmagan hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'iy nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Mazkur organ soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har yili 1 fevralgacha ob'ektning 1 yanvardagi holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatini va uning mulkdorini ko'rsatgan holda ma'lumotlar taqdim etadi.

Soliq to'lovlari yuzasidan imtiyoz huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishlari lozim.

Soliq summasi mol-mulkning 1 yanvardagi holatiga ko'ra inventarizatsiya qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda Davlat soliq ins'ektsiyasi mutaxassislari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, joylar va inshootlar uchun soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

Masalan: mulkdorlarni mol-mulkining umumiy inventarizatsiya qiymati 3,0 mln.so'mga baholangan. Mulkdorlar soni 3 nafar bo'lib, har birining ulushi bir xil, ya'ni 1,0 mln.so'mga to'g'ri keladi. Demak, har bir mulkdorga $(1 \times 0,5\%) = 5,0$ ming so'm soliq summasi to'g'ri keladi.

Mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, soliq avvalgi mulkdor tomonidan hisobot yilning 1 yanvaridan ehtiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan ehtiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular bar'o etilgan yildan keyingi yil bo'shdan ehtiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan ehtiboran to'lanadi.

Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan ehtiboran to'xtatiladi. Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiklovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan yoki amal qilishi tugagan taqdirda, soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki amal qilishi tugagan oydan ehtiboran amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay to'shiriladi.

Soliqni to'lash teng ulushlarda bir yilda ikki marta ya'ni: hisobot yilining 15 iyuniga qadar, 50 foiz; hisobot yilining 15 dekabriga qadar, 50 foiz miqdorida amalga oshiriladi.

Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda aynan ushbu holatni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa, voqea yuz bergan oydan boshlab soliq undirish to'xtatiladi.

10-MAVZU: YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

10.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 1 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Yer solig'ining mohiyati 2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va uni to'lovchilar 3. Yuridik shaxslarga yer solig'i bo'yicha imtiyozlar 4. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilar va ularga qo'llaniladigan yengilliklar
O'quv mashg'ulotining maqsadi: yer solig'ining mohiyati va soliq to'lovchilarni tavsiflash, yer solig'i bo'yicha imtiyozlarni aniqlash, yer solig'i to'lovchilarini hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibini tushuntirish	
Pedagogik vazifalar: • yer solig'ining mohiyatini tushuntiradi; • yer bo'yicha imtiyozlarni aniqlaydi; • yer solig'i stavkalari va uni hisoblab beradi; • yer solig'ini to'lovchilarni hisobga olish va to'lash tartibini tushuntirib beradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • yer solig'ining mohiyatini tushunib oladi; • yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i va uni to'lovchilarini bilib oladi; • jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilar va ularga qo'llaniladigan yengilliklar haqida tushunchalarga ega bo'ladi.
O'qitishning ushbi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihojlangan auditoriya

10.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (30 min)	2.1. Mavzuni yoritishda muammoli savollarni taklif etadi. 2.2. Yer solig'ining mohiyatini tushuntirib beradi. 2.3. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i va uni to'lovchilarini yoritib beradi. 2.4. Yuridik va jismoniy shaxslarga yer solig'i bo'yicha imtiyozlarni farqlab beradi. 2.5. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i to'lovchilar va ularga qo'llaniladigan yengilliklarni sanab beradi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (5 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlari aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

10.3. O'quv materiallari

1. Yer solig'ining mohiyati

Yer insoniyat uchun eng asosiy, hayotiy zarur boylik bo'lib, u kishilarni yediradi, ichiradi, kiyintiradi hamda yashash uchun asosiy shart-sharoitlarni yaratib beradi. SHunga ko'ra u yashash va hayot kechirish makoni bo'lib hisoblanadi. Yerdan foydalanuvchilardan soliq undirish ularni o'z egaliklaridagi maydonlardan oqilona foydalanish, uni muhofaza etish, tu'roq unumdorligini oshirish va muhimi ko'roq daromad olishga yo'naltirilgan. Boz ustiga yerlarni yaxshi holda saqlab turish, tu'roq eroziyasiga qarshi kurashish, sug'orish inshootlarini qurish, tahrirlash maqsadlarida davlat xazinasidan katta miqdorda mablag'lar sarflanadi. Bu harajatlarning muayyan qismi yerdan foydalanuvchilar tomonidan qo'lanishi lozim. Mazkur sabablar yuridik va jismoniy shaxslar foydalanadigan yerlardan soliq undirishga asos bo'ladi.

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'ta boshlangandan so'ng 1990 yilda «Er to'g'risida» qonun qabul qilinib, unga ko'ra yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilab qo'yildi. 1993 yil 6 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan «Yer solig'i to'g'risida» maxsus qonun qabul qilib, unga ko'ra soliq solish ob'ektlari va sub'ektlari, soliq to'lash tartibi, imtiyozlar kabi yo'nalishlar belgilab berildi. Qonun 1994 yil 1 yanvardan amaliyotga kiritildi. Qonunda yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining undirish tartiblari belgilab berildi. SHu bilan birga qishloq xo'jaligini ustuvor rivojlantirish zarurligini ehtiborga olib qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar uchun qonunni joriy etish muddati 1995 yil yanvarg' qilib belgilandi. SHunday qilib yer solig'ini joriy etilishi bilan mamlakatda yer munosabatlarini tartibga solishning chinakam iqtisodiy mexanizmi paydo bo'ldi.

1997 yil 24 a'relda Oliy Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinib, 1998 yil 1 yanvardan kuchga kiritilishi bilan yer solig'ining huquqiy asoslari yaratildi. Mazkur jarayonlar 2007 yil 25 dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksida yanada mustahkamlandi. Shunga ko'ra Yer kodeksining 28-moddasiga va Soliq kodeksining 278-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish to'lovli hisoblanadi. Unga ko'ra yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshirilishi belgilangan. SHu o'rinda yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari ularga belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tadbqiq etiladi. SHuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortar ekan, bundan faqat fiskal manfaatdorlikni emas, balki soliqlar orqali qishloq xo'jaligini boshqarish, yerdan unumli va samarali foydalanish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy himoya kabi vazifalarni ham ko'zlaydi. Buni qishloq xo'jaligida asosiy vosita bo'lgan yerlarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarida ham ko'rish mumkin.

2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va uni to'lovchilar

Respublikamizning soliq undirish amaliyotida yer solig'ini to'lovchilar to'rt guruhga bo'linadi.

Yer solig'ini to'lovchi sub'ektlar

№	Sub'ektlar	Shakli
1	Korxona, birlashma, tashkilot va muasssasalar	Yuridik
2	Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari	Yuridik
3	Yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik korxonalari	Yuridik
4	O'z qaramog'ida yoki foydala'ishda yer maydonlari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar	Jismoniy


Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara haqi sifatida amalga oshiriladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Bunda,

vakolatli organlar qarori bilan yerni ijaraga olgan yuridik shaxslar ijara haqini to'lovchilar hisoblanadi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinguniga qadar ijara haqi stavkalari yer solig'ining 1 stavkasidan 3 stavkasigacha tebranib turar edi. 2008 yilning 1 yanvaridan yer solig'iga tengla'g'tirilgan. Agar soliq to'lovchi 2010 yilda Namangan shahrining 1-zonasidan yer uchastkasini ijaraga olsa, unda ijara haqi 6421899 so'mni tashkil etadi. (Ilgari bu summa 6421899 so'mdan 2140633 so'mgacha tebranib turar edi).

Yer uchastkasining ijarasi yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlarida muddatli, haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iboratdir. Yer uchastkasini shartnoma asosida quyidagilar oladi:

Yer uchastkasini shartnoma asosida beruvchi vakolatli organlar




Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ining to'lovchisi hisoblanadi.


Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'laydi.

Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmagan taqdirdagina yer solig'ini to'lashdan ozod etiladi. Shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar ham yer solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanmaydilar.

Yer solig'ini to'lamaydigan sub'ektlar



Yuridik shaxslar uchun soliq solish ob'ekti hisoblanmaydigan yer uchastkalari



Yer uchastkasining soliq solinmaydigan maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Yer uchastkasiga bo'lgan mulkiy egalik qilish, foydalanish va ijara huquklari yil mobaynida

boshqa soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan ehtiboran hisoblab chiqariladi.

Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan ehtiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari yuzaga kelsa, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan kamaytiriladi. SHuningdek, yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan ehtiboran hisoblab chiqariladi.

3. Yuridik shaxslarning yer solig'i bo'yicha imtiyozlar

Yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar uchun imtiyozlar tizimi amal qilib, unga ko'ra yer solig'i to'lashdan quyidagi sub'ektlar ozod etiladi:

- madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari - o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar;

- yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan ehtiboran ikki yilga;

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan ehtiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Shuningdek, soliq solinmaydigan yer uchastkalari ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

- bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik agrokorxonaning umumiy foydalanishdagi (kirish yerlari yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar) yerlar kiradi;

- muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning yerlari jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, kom'leks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalar bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalari kiradi;

- sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalani'gga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

- rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - aholining ommaviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar;

- tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) - tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;

- suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlar' egallagan yerlar, shuningdek suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari va boshqa suv ob'ektlari sohilidagi yerlar kiradi;

- elektr uzatish liniyalari, ularning podstantsiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

- umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiolashtirish, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari va boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

- madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash ob'ektlari egallagan yerlar;

-umumiy foydalanishdagi avtomobilg' yo'llari egallagan yerlar;

-umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tu'roq ko'tarmasi, sunhiy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi va elektr tahminoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'l stantsiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

-shahar elektr transporti yo'llari va metro'oliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metro'oliten stantsiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

-s'ort va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish kom'lekslari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari va o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

-aholi punktlarining suv tahminoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodo'rovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stantsiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodo'rovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar va shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

-magistral neftg' va gaz quvurlari, shu jumladan kom'ressor, nasos stantsiyalari, yonginga qarshi va avariya qarshi stantsiyalar, trubo'rovodlarni katodli himoyalash stantsiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, trubo'rovodlarni tozalash qurilmalari va shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

-magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'aytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stantsiyalari, issiq suv tahminotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, tsirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

-samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aero'ortlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunolari egallagan yerlar;

-O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'ektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

-konservatsiya qilib qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan ob'ektlar egallagan yerlar, ularning konservatsiyasi davrida;

-gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

-yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan ob'ektlar egallagan yerlar;

-ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmon larning daryolar, ko'llar, suv omborlarining va ovlanadigan qimmatbaho baliqlarning uvildiriq sohadigan joylarini muhofaza qiladigan boshqa suv ob'ektlarining sohillaridagi, temir yo'llar va avtomobilg' yo'llari yoqasidagi tahqiqlangan maydonlari; eroziyaga qarshi o'rmonlar; cho'l va yarim cho'l mintaqalaridagi o'rmonlar; shahar daraxtzorlari, o'rmonzor bog'lari; aholi punktlari va sanoat markazlari atrofidagi yashil mintaqalar daraxtzorlari; suv tahminoti manbalarining sanitariya muhofazasi mintaqalari o'rmonlari, kurortlarning sanitariya muhofazasi tegrasidagi o'rmonlar, alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmon massivlari, ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga molik o'rmonlar;

-qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan ehtiboran besh yil mobaynida;

-melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan ehtiboran besh yil muddatga;

-yangi bar'o etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qathi nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1 yanvaridan ehtiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa, joriy soliq davrining 1 yanvaridan ehtiboran boshlanadi;

-ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eks'erimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eks'erimental ishlar, yangi navlarning selektsiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiklangan boshqa ilmiy va o'quv maqsaddari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq

to'lashdan ozod qilinadi.

Bevosita belgilangan maqsadda foydalanilmayotgan yer uchastkalariga belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Yuridik shaxslar tomonidan yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan taqdirda yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

SHuningdek, shaharlar va shaharchalarning mahmuriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Yer solig'i bo'yicha kalendar yili soliq va hisobot davri bo'lib hisoblanadi.

Yer solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi Davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Yer solig'ini hisoblash soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan yil mobaynida yer uchastkalariga bo'lgan mulk, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari paydo bo'lsa (bekor qilinsa), shuningdek ular foydalanayotgan yer maydonlari ko'aygan (kamaygan), imtiyozlar huquqlari bekor qilingan (vujudga kelgan) taqdirda, ular Davlat soliq xizmati organiga yer solig'ini aniqlashtirilgan hisob-kitobini yer uchastkasi ajratilgan (olib qo'yilgan) yoki imtiyoz huquqlari bekor qilingan (vujudga kelgan) kundan ehtiboran bir oylik muddatdan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini Davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etishi shart.

Yuridik shaxslar tomonidan yer solig'ini to'lash yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15 kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan

yer solig'ini to'lash tartibi

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash tartibi	→	hisobot yilini 1 iyuliga qadar yillik soliq summasining 20 foizi
	→	hisobot yilining 1 sentyabriga qadar yillik soliq summasining 30 foizi
	→	hisobot yilining I dekabriga qadar soliqning qolgan summasi, ya'ni 50 foizi

4. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i va ularga qo'llaniladigan yengilliklar

Yer uchastkalariga mulk, egalik qilish, foydalanish va ijara xuquqlari asosida ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanadi.

Uy-joy, yashash uchun mo'ljallanmagan imorat va inshootlar meros bo'yicha o'tishi bilan birgalikda mulk, egalik va foydalanish huquqlari o'tgan yer uchastkalari uchun yer solig'i meros qoldiruvchining soliq majburiyatlari hisobga olingan holda merosxo'rlardan undiriladi.

Shuni qayd etish lozimki, ko'qavatli uylardagi kvartiralar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ (kadastr xizmati)ning yer uchastkalar maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari

bo'yicha aniklanadi.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i bo'yicha soliq solish ob'ekti	→	dehqon xo'jaligi yuritish uchun asos qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari
	→	yakka tartibda uy-joy qurilishni uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari
	→	jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari
	→	xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar
	→	meros bo'yicha xadya qilinishi yoki olishnni natijatida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk, egalik qilish va foydalanish xuquqlari ham o'tgan yer uchastkalari
	→	qonun hujjatlarida belgilapgan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari
	→	tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari

Ayrim toifadagi yerdan foydalanuvchi jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini to'lashda qonun doirasida yengilliklar ko'zda tutilgan. Unga ko'ra yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

- yaylov chorvachiligining cho''onlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, veterinariya vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassisleri va ishchilari;

- O'zbekiston qahramoni, Sovet Ittifoqi qahramoni, Mehnat qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar;

- 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan doiradash ularga tenglashtirilgan shaxslar;

- I va II guruh nogironlari;

- yolg'iz pensionerlar;

- boquvchisini yo'qotgan ko'' bolali oilalar;

- CHernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar) shaxslar;

- shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

- ko'chirib keltirilgan fuqarolar joylashgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkalari berilgan paytdan ehtiboran besh yilgacha;

- shaxslar - ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan ehtiboran ikki yil muddatga.

Jismoniy shaxslar to'laydigan yer va mol-mulk soliq-larini hisoblab chiqishning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni Davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yer solig'i summasi va uni to'lash muddatlari ko'rsatilgan to'lov xabarnomasi jismoniy shaxslarga Davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay to'shiriladi.

Yer solig'i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat'iy nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to'lanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan yer solig'ini to'lash yiliga 2 marta teng ulushlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 15 iyuniga qadar 50 foizi;

- hisobot yilining 15 dekabriga qadar qolgan 50 foizi to'lanadi.

11-MAVZU. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI

11.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi 2. Yagona soliq to'lovi. Soliq stavkalari hamda imtiyozlar 3. Yagona yer solig'i, uni to'lash tartibi va imtiyozlar 4. Qat'iy belgilangan soliqni ko'llash mexanizmi
O'quv mashg'ulotining maqsadi: soliq solishning soddalashtirilgan tartibining mohiyati va soliq to'lovchilarni tavsiflash, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi boyicha imtiyozlarni aniqlash, soliq to'lovchilarini hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibini tushuntirish	
Pedagogik vazifalar: • soliq solishning soddalashtirilgan tizimining mohiyatini tushuntiradi; • yagona soliq to'lovi va stavkalari hamda imtiyozlarni aniqlaydi; • yagona yer solig'i, uni to'lash tartibi bayon etadi va imtiyozlarni sanaydi; • qat'iy belgilangan soliqni ko'llash mexanizmini tushuntirib beradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • soliq solishning soddalashtirilgan tizimining mohiyatini tushunib oladi; • yagona soliq to'lovi va stavkalari hamda imtiyozlarni bilib oladi; • yagona yer solig'i, uni to'lash tartibi va imtiyozlar haqida tushunchalarga ega bo'ladi.
O'qitishning ushbi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihojlangan auditoriya

11.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (60 min)	2.1. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimining mohiyatini tushuntiradi; 2.2. Yagona soliq to'lovi va stavkalari hamda imtiyozlarni bayon etadi; 2.3. Yagona yer solig'i, uni to'lash tartibi bayon etadi va imtiyozlarni sanaydi; 2.4. Qat'iy belgilangan soliqni ko'llash mexanizmini tushuntirib beradi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (10 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlari aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar


11.3. O'quv materiallari

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi

Keyingi yillarda soliq tizimida soddalashtirilgan soliq amaliyotiga alohida ehtibor qaratilmoqda. Unga ko'ra ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun soliq solishning soddalashtirilgan tartibi qo'llanilmoqda.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi qo'llanilishi natijasida soliq to'lovchilar tomonidan

hisob-kitob ishlari ancha yengillashdi hamda hisobotlar to'shirishda qulayliklar paydo bo'ldi.



Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi amal qiluvchi soliq to'lovchilar uchun to'lov manbaida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash majburiyati saqlanib qoladi. Bular quyidagilar:

- to'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i;
- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;
- aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aktsiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- bojxona to'lovlari;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- davlat bojlari;
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to'lovini to'lovchilar bundan mustasno);
- avtotransport vositalarini olganlik yoki vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

2. Yagona soliq to'lovi. Soliq stavkalari hamda imtiyozlar

2005 yil 20 iyunda prezidentning kichik biznes sub'ektlarining faoliyati shart-sharoidlarini yaxshilashga hamda ularga soliq solishni soddalashtirishga yo'naltirilgan «Mikrofimlar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3620-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan quyidagi masalalarni tartibga solish ko'zda tutilgan:

- soliq solishning soddalashtirilgan tizimi mazmunini o'zgartirish, bir xillashtirilgan soliq to'lovini joriy etish;
- joriy etilayotgan bir xillashtirilgan soliq to'lovini to'lovchilar uchun imtiyozlar va qo'shimcha preferentsiyalar taqdim etish.

Farmon faqat kichik biznes sub'ektlari, mikrofirmalar va kichik korxonalarga tadbiq etiladi. U yoki bu korxonani aytib o'tilgan toifalardan biriga kiritish mezonini bo'lib xodimlarning o'rtacha yillik soni hisoblanadi. Bunga unitar (sho'hiba) korxonalar, filiallar va vakolatxonalarda ishlovchi xodimlar ham kiradi.

Yagona soliq to'lovi bir xillashtirilgan to'lov hisoblanadi. 2005 yil 1 iyuldan boshlab bir necha soliq va majburiy to'lovlar o'rniga joriy etildi.


Yagona soliq to'lovi

№	2005 yil 1 iyulga qadar	Stavkasi	2005 yil 1 iyuldan boshlab
1	Yagona soliq	15,2	Yagona soliq to'lovi kiritildi va stavkasi 13 foiz qilib belgilandi.
2	Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi		
3	Respublika yo'l jamg'armasi		
4	Maktab ta'limi jamg'armasi		

Shu o'rinda yagona soliq to'lovi tadbiq etilmaydigan mikrofirma va kichik korxonalarga ehtibor berish muhimdir. Ular jumlasiga aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalarga, (bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi

mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno), yagona yer solig'i, qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi hamda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchi sub'ektlar



Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan ehtiboran 15 kundan kechiktirmasdan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi Davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Asosiy faoliyati savdo va umumiy ovqatlanish yo'nalishida bo'lgan yuridik shaxslar belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashi lozim.

Turli soliq solish ob'ektlari va yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kerak.

Ayrim turdagi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari

№	Soliq to'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan %	
		2009	2010
1	Lotoreyalar tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar (mazkur faoliyat turi doirasida)	33	33
2	Xususiy amaliyot bilan shug'ullanadigan notariuslar	50	50

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqal'og'iston Respublikasi Vazirlar kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bo'yicha ijaraga olingan yer uchastkalari uchun byudjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadi.

Umumbelgilangan tartibda soliq to'lovchilar foydalanilayotgan yer uchastkasi uchun ijara haqi to'lanadi.

Yagona soliq to'lovini amalga oshirishda yal'i tushum soliq ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

2010 yil uchun yagona soliq to'lovi stavkalari mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun prezidentning 2009 yil 22 dekabrda qP- 1245-sonli qarori bo'yicha iqtisodiyotning barcha

tarmoqlaridagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun 1 foizga pasaytirildi va 7 foiz miqdorida belgilandi.

Sanoat ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 7 foiz miqdorida saqlanib qoldi.

Kom'g'yuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovar, ish, xizmatlar realizatsiyasining umumiy hajmida kamida 80 foizni tashkil etadigan korxonalar uchun — 5 foiz miqdorida, asosiy faoliyatiga ko'ra qishloq xo'jaligi korxonalari uchun (yagona yer solig'i to'lovi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilaridan tashqari) - 6 foiz miqdoridagi stavkalar saqlanib qolindi.

Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishda daromad oladigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaning 30 foizi miqdorida belgilanadi.

Tayyorlov va tahminot-sotish tashkilotlariga, brokerlik idoralariga, shuningdek vositachilik, to'shiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaning 33 foizi miqdorida belgilangan.

Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaning 13 foizi miqdorida belgilanadi. Bunda soliq solish bazasi to'langan haq (yal'i daromad) summasi ko'rinishida amal qiladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi soliq solinadigan bazaning 10 foizi miqdorida, umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatadigan ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari uchun esa soliq solinadigan bazaning 8 foizi miqdorida belgilangan.

CHakana savdo korxonalari (chakana savdo qiluvchi dorixonalardan tashqari) uchun tabaqalashtirilgan soliq stavkasi amal qiladi. Xususan, aholi soni 100 ming va undan ko'ri kishi bo'lgan shaharlarda — yagona soliq to'lovi stavkasi 4 foiz, boshqa aholi punktlarida - 2 foiz, borish qiyin bo'lgan tog'li tumanlarda — 1 foiz qilib belgilangan. Xususan, 1 foizli stavka bilan yagona soliq to'lovchilar toifasiga Namangan viloyatining Yangiyo'rg'on va po' tumanining borish qiyin, tog'li hududlarida faoliyat yurituvchi chakana savdo korxonalari kirishi mumkin. Joylashgan joyidan qat'iy nazar ulgurji savdo korxonalari uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari) Respublika hududida yagona soliq to'lovi 5 foiz qilib belgilangan.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi Davlat soliq xizmati organiga ortib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi. Xususan, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda amalga oshiriladi. Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovi yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda imtiyozlar tizimi amal qiladi. Unga ko'ra, yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi. Savdo, vositachilik, tahminot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar yagona soliq to'lovi bo'yicha imtiyozga ega emaslar.

Ko'rsatilgan imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga faqat shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.


3. Yagona yer solig'i, uni to'lash tartibi va imtiyozlar

1998 yil 10 oktyabrda «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi PF-2086-sonli prezident Farmoniga ko'ra 1999 yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo'jalik tovarlarini ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'i joriy etildi.


Yagona yer solig'i yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab

chiqaruvchilari mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish va soliqlarga tortish mexanizmini soddalashgani maqsadida qo'llanila boshlandi.

Yagona yer solig'i to'lovchilar



Yagona yer solig'i to'lamaydigan sub'ektlar



Shuni qayd etish lozimki, yer uchastkalari ijaraga berilgan taqdirda yagona yer solig'ini to'lash majburiyatini ijaraga beruvchining zimmasida saklanib qoladi.

Yagona yer solig'i to'lash uchun soliq solish ob'ekti qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi bo'lib hisoblanadi.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Yer uchastkalarining normativ qiymati belgilanmagan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun soliq solinadigan yer uchastkalari soliq solinadigan bazadir.

Qonunchilikda belgilangan tartibda ayrim toifadagi yerdan foydalanuvchilarga nisbatan imtiyozlar tizimi amal qiladi. Jumladan, yagona yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

-yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan ehtiboran 2 yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi;


-ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlari yuridik shaxslari davlat ro'xatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan ehtiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili oxiriga yetkazilmagan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.


Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar - yagona yer solig'i to'lovchilarga yer solig'i bo'yicha imtiyozlar tatbiq etiladi.

Yagona yer solig'i summasi soliq solinadigan bazaga qarab yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan hamda yer uchastkalarining maydonidan, yer uchastkasi joylashgan yer va yer uchastkasining bonitet ballini nazarda tutadigan tuzatish koeffitsienti ehtiborga olingan holda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.


Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi Davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yagona yer solig'ini to'lash muddatlari





Yagona yer solig'ining stavkasi



2010 yil uchun jamoat imoratlari va hovlilari band etgan yerlar bo'yicha baholash 2,0 koeffitsientini qo'llagan holda amalga oshiriladi. Belgilangan mezonlarga muvofiq yagona yer solig'i to'lovchilari hisoblanadigan baliqchilnk xo'jaliklari sug'oriladigan yerlarning tuman bo'yicha o'rtacha mehyoriy qiymatidan kelib chiqib yagona yer solig'ini to'laydilar.

4. Qat'iy belgilangan soliqni qo'llash mexanizmi

Soliq amaliyotida ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq solish tizimi qo'llaniladi.

Qat'iy belgilangan soliq o'z nomi bilan qat'iy belgilangan stavkalarda undiriladi. U qat'iy belgilangan soliq stavkasi bo'lib, daromad miqdori qanday bo'lishidan qat'iy nazar, belgilab qo'yilgan stavkada undiriladi.

Qat'iy belgilangan soliqni faoliyatining ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlari ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Qat'iy belgilangan soliq tegishli faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan baza bo'lib, uning summasi mazkur baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniklanadi hamda soliq davri bir oy bo'lib hisoblanadi.


2009-2010 yillar uchun yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari

№	Faoliyat turi	Soliq to'lovchilar	Mazkur faoliyat turini amalga oshiruvchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich bo'yicha har oyda o'qatga to'lanadigan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdordagi tumanlar va viloyatlar uchun)					
				Tashkent shahri		Viloyatdagi shaharlar		Tumanlar, shahar yarmadani qishloq joylari	
				2009	2010	2009	2010	2009	2010
1	Avtotransporti ishp muvazir savdasi joylari	Yuridik shaxslar	Faoliyat maydoni (kvadrat metr)	0,1	0,1	0,09	0,09	0,06	0,06
2	Bekdaro' yin o'limatdani	Yuridik va jismoniy shaxslar	Harakatdagi o'limat soni (har bir kunda)	3,0	3,0	2,0	2,0	1,0	1,0

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan (yakka tartibdagi tadbirkorlardan) olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalariga 2010 yilda oziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qiluvchilar uchun oylik soliq stavkasi shaharlarda viloyatdagi eng kam ish haqiga karrali miqdordagi 2008 yildagi 7,5 baravardan 2010 yil 6,0 baravarga, xuddi shu faoliyat uchun tumanlarda 4 baravardan 3 baravarga kamaytirildi. Nooziq-ovqat tovarlari bo'yicha esa viloyatdagi shaharlarda 9 baravardan 6,5 baravarga, tumanlarda 4,5 baravardan 3,0 ga pasaytirildi. Maishiy xizmatlar uchun shaharlarda 3 dan 2 baravarga, tumanlarda


1,5 dan 1 baravarga kamaytirildi. Mol-mulkni ijaraga berishdan tashqari, boshqa faoliyatlar bilan shug'ullanuvchilar shaharlarda 3,0 baravar darajada saqlab qolindi, tumanlar va qishloq joylarda 1,5 baravardan 2,0 baravarga ko'aydi.

Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobini taqdim etish muddatlari



Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlar sonidan qat'iy nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatini amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'alsh muddatlari



Qat'iy belgilangan tartibda soliq to'lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar belgilangan soliqlardan tashqari quyidagilarni ham to'laydilar:

- bojxona to'lovlari;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- tadbirkorlik faoliyati uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- aktsiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda aktsiz solig'i;
- byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- davlat boji;
- avtotransport vositalarini olganlik yoki vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatsa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faoliyatini vaqtinchalik to'xtatish to'g'risida ariza berishi va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomani to'shirishi shart.

Mazkur axborot yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan faoliyatni amalga oshirmaydigan davr uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatib turish uchun asos bo'ladi.

12-MAVZU. MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG'IMLAR

12.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 1 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Mahalliy soliqlar va yig'imlarning mazmuni 2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, uning mohiyati 3. Soliqni hisoblab chiqarish, hisobotni taqdim etish va to'lash tartibi 4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizelg' yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun undiriladigan soliq
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Mahalliy soliqlar va yig'imlarning mohiyati, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining iqtisodiy ahamiyati, soliq to'lovchilarni tavsiflash, mahalliy soliqlar va yig'im boyicha imtiyozlarni aniqlash, soliq to'lovchilarini hisobga olish hamda soliqni hisoblash va to'lash tartibini tushuntirish	
Pedagogik vazifalar: • soliq solishning soddalashtirilgan tizimining mohiyatini tushuntiradi; • yagona soliq to'lovi va stavkalari hamda imtiyozlarni aniqlaydi; • yagona yer solig'i, uni to'lash tartibi bayon etadi va imtiyozlarni sanaydi; • qat'iy belgilangan soliqni ko'llash mexanizmini tushuntirib beradi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • soliq solishning soddalashtirilgan tizimining mohiyatini tushunib oladi; • yagona soliq to'lovi va stavkalari hamda imtiyozlarni bilib oladi; • yagona yer solig'i, uni to'lash tartibi va imtiyozlar haqida tushunchalarga ega bo'ladi.
O'qitishning uslubi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihozlangan auditoriya

12.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (30 min)	2.1. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimining mohiyatini tushuntiradi; 2.2. Yagona soliq to'lovi va stavkalari hamda imtiyozlarni bayon etadi; 2.3. Yagona yer solig'i, uni to'lash tartibi bayon etadi va imtiyozlarni sanaydi; 2.4. Qat'iy belgilangan soliqni ko'llash mexanizmini tushuntirib beradi.	2.1. Talabalar ehtibor beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (5 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlari aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

12.3. O'quv materiallari

1. Mahalliy soliqlar va yig'imlarning mazmuni

Amaliyotda umumdavlat soliqlari butun mamlakat miqyosida undiriladi va Respublika byudjetida jamlanadi. Mahalliy soliqlarga esa mahalliy byudjetga yo'naltirilgan soliqlar kiradi. Mahalliy soliqlar asosan mahalliy byudjetni shakllantirish asosida hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishga sarflanadi. Mahalliy soliqlarga mol-mulk solig'i, yer solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizelg' yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hamda ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar kiradi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining barcha darajalardagi mahalliy byudjetlar daromadlari va harajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mashuliyatini o'shrish, mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2009 yil 22 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2010 yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi pQ-1245-sonli qaroriga asosan quyidagi umumdavlat soliqlari bo'yicha tushumlar to'liq miqdorda mahalliy byudjetlar daromadlariga o'tkaziladigan bo'ldi. Bular:

- 1) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 2) yuridik va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;
- 3) yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq;
- 4) respublikada ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'iga aktsiz solig'i bo'yicha tushumlar.

2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, uning mohiyati

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilma solig'ini to'lovchilar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblanadilar.

Notijorat tashkilotlar hamda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida ishlovchi yuridik shaxslar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'lovchilar hisoblanmaydilar. Ammo, ular tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, daromad to'adigan bo'lsalar, mazkur soliqni to'laydilar.

Shu o'rinda ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga sog'liqni saqlash, ta'lim muassasalari hamda bolalar dam olish oromgohlari kiritilishini tahkidlash lozim.

Ushbu soliq turi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilgandan keyin korxona va tashkilotlar ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi. Bunda soliq solinadigan baza olinishi lozim bo'lgan va olingan dividendlar summasiga qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun esa sof qo'shimcha foyda summasiga ham kamaytiriladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bo'lgai soliq to'lovchilar soliq solinadigan bazani foyda solig'y to'langanidan keyin o'z ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini tahminlash uchun haqiqatda sarflangan harajatlarning mazkur harajatlir summasidan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasiga kamaytirilgan summasini qo'shish orqali aniqlanadi. Olingan dividendlar soliq solinadigan bazadan chegirib tashlanadi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha imtiyozlar tizimiga ehtibor beradigan bo'lsak, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroni» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-45 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi. Savdo, vositachilik, tahminot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar uchun imtiyoz qo'llanilmaydi. Mazkur soliq turi bo'yicha imtiyoz qo'llanilganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

3. Soliqni hisoblab chiqarish, hisobotni taqdim etish va to'lash tartibi

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlariga ega bo'lgan soliq to'lovchilar byudjetga to'lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydilar:

- agar ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini tahminlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lanmaydi;

- agar ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini tahminlash uchun xarajatlar summasi hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo'lsa, byudjetga to'lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar, hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdikdanadigan shakl bo'yicha hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi Davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Quyidagi sub'ektlar joriy to'lovlar to'lamaydiganlar toifasiga kiritiladi:

- hisobot davrida eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda soliq solinadigan bazaga ega bo'lgan soliq to'lovchilar;

- ilgarigi hisobot davrida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saklash xarajatlari summasi soliq solinadigan baza summasiga teng yoki undan ortiq bo'lgan soliq to'lovchilar;

- yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash mazkur soliq bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun undiriladigan soliq

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq to'lovchilar aynan ana shu mahsulotlarning chakana sotishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Ilgari transport egalari transport vositasini egasi sifatida yahni transport vositasi harakatda bo'lmasa yoki tahmirtalab bo'lib yillar davomida ishlamasa ham soliq to'lagan bo'lsalar, endilikda transport vositalari harakati jarayonida unga sarflangan benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq to'lovlarini amalga oshiradilar. Bu qiyosiy mahnoda transport uchun soliq to'lanayotgandek bo'lib ko'rinsada, aslida yonilg'i uchun to'lov sifatida namoyon bo'ladi.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gazni chakana sotish soliq solish ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Mazkur mahsulotlarni natura holidagi sotish hajmi soliq solinadigan bazadir.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yil choragi, ular jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun bir oy soliq davri bo'lib hisoblanadi.

Ushbu soliq turi bo'yicha olinadigan soliq, soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Mazkur soliq summasi chakana narxga qo'shimcha tarzda belgilanadi, sotib oluvchiga beriladigan chekda alohida qatorda ko'rsatiladi hamda jismoniy shaxslardan realizatsiya qilinayotgan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag'larni olish bilan bir vaqtda undiriladi.

Soliq hisob-kitobi mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda shahobchalar joylashgan yerdagi Davlat soliq

xizmati organlariga taqdim etiladi. Mikrofirma va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan esa har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Ushbu soliqni to'lash jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizelg'yonilg'isi va gaz chakana realizatsiya qilingan oyning 10 kunligi tugagandan keyin uchinchi kunidan kechiktirmay, yoqilg'i quyish shahobchasi joylashgan yerda har 10 kunda amalga oshiriladi.

13-MAVZU. IJTIMOIIY JAMG'ARMALARGA MAJBURIY TO'LOVLAR

13.1. Ma'ruza mashg'ulotining texnologiyasi

Vaqt – 1 soat	Talabalar soni: 25-75 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining ish rejasi	1. Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ekti va bazasi 2. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar, uni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi 3. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar 4. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'imlar 5. Soliq to'lovchilarning ayrim faoliyat turlariga soliq solishning xususiyatlari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ekti va bazasi aniqlash, yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar, uni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi tushuntirish.	
Pedagogik vazifalar: • yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ekti va bazasini aniqlaydi; • yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar, uni hisoblab chiqarish va to'lash tartibini tushuntiradi; • byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni aniqlaydi; • respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'imlarni sanaydi; • soliq to'lovchilarning ayrim faoliyat turlariga soliq solishning xususiyatlarini o'rgatadi.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: • yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ekti va bazasini aniqlashni tushunib oladi; • yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar, uni hisoblab chiqarish va to'lash tartibini bilib oladi; • byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar, respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'imlar, soliq to'lovchilarning ayrim faoliyat turlariga soliq solishning xususiyatlari haqida bilimlarga ega bo'ladi.
O'qitishning ushbi va texnikasi	Ma'ruza, hikoya, axborot
O'qitish shakli	Guruhiy, kollektiv
O'qitish vositalari	Ma'ruzalar matni, proektor
O'qitish shart-sharoiti	Jihojlangan auditoriya

13.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqishlar, vaqt	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min)	1.1. Mahruza mavzusi va rejasi ehlon qilinadi.	1.1. Eshitadilar va yozib oladilar
2-bosqich.	2.1. Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha soliq to'lovchilar, soliq	2.1. Talabalar ehtibor


Asosiy (30 min)	solish ob'ekti va bazasini aniqlaydi; 2.2. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar, uni hisoblab chiqarish va to'lash tartibini tushuntiradi; 2.3. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni aniqlaydi; 2.4. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'implarni sanaydi; 2.5. Soliq to'lovchilarning ayrim faoliyat turlariga soliq solishning xususiyatlarini o'rgatadi.	beradilar. 2.2. Tinglaydilar va yozib oladilar
3-bosqich. Yakuniy (5 min)	3.1. Mavzuga xulosa qilinadi. Mavzuning asosiy jihatlarini aniqlashtiriladi. 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi.	3.1. Talabalar eshitadilar va yozib oladilar 3.2. Topshiriqlarni yozib oladilar

13.3. O'quv materiallari

1. Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ekti va bazasi

Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lovchilar ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlarni amalga oshiruvchilar bo'lib hisoblanadi.

Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar



Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, javobgarlik ish beruvchi yuridik shaxs zimmasiga yuklatiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda to'laydilar. Dehqon xo'jaliklari a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining 4,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi.

Mazkur mehyor dehqon xo'jaliklari a'zolarini Respublika pensiya tizimiga jalb qilish maqsadida kiritilgan. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarini to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi. Sug'urta badallarini to'lashning muddatlari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra yakka tartibdagi tadbirkorlar har oyda keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari esa hisobot yilining 1 oktyabrigacha to'lovlarni amalga oshiradilar.

Ish haqi tarzidagi daromadlar, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash Yagona ijtimoiy to'lovning sug'urta badallarining soliq solish ob'ektidir. Soliq solish bazasi esa ish haqi tarzidagi daromaddarga rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga oid daromadlar summasi soliq solinadigan baza sifatida ehtirol etiladi.

2. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar, uni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bo'yicha imtiyozlar qo'llash tartibi amal qiladi. Unga ko'ra, kompensatsiya to'lovlari, xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayriya jamg'armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar, yosh mutaxassislariga oliy o'quv yurtini

tamomlaganlaridan so'ng tahtil vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqa kabilar yuzasidan imtiyozlar qo'llaniladi.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi. Sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan byudjetga o'tkaziladi.

Prezidentning 2009 yil 22 dekabrda qQ-1245-sonli qaroriga asosan 2010 yil 1 yanvardan boshlab Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar 25 foiz stavkada to'lovni amalga oshiradilar.

Bunda shunga ehtibor qaratish lozimki, to'lov har bir xodim hisobga eng kam oylik ish hakining bir baravaridan kam bo'lmagan miqdorda bo'lishi lozim.

Fermer xo'jaliklari uchun esa har bir xodim hisobiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Yagona ijtimoiy to'lovning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi Davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi. Bunda, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda, mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda to'laydi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Sug'urta badallarini to'lash yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har oyda tadbirkorlik faoliyati yuritilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarin'sh a'zolari esa hisobot yilining 1 oktyabrigacha to'lovlar'm amalga oshiradilar. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kunidagi eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

To'lov to'shiriqnomasida soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Agar davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun - yil) uchun to'langan deb hisoblanadi». To'lov quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

-Yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha — har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

-sug'urta badallari bo'yicha — ish haqiga pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda.

4. Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Mazkur ajratmani to'lovchilar bo'lib, yuridik shaxslar, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari yuridik shaxslar hamda oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs — yuridik shaxs bo'lib hisoblanadi.

Bu yig'imni to'lovchilar tarkibiga notijorat tashkilotlari hamda yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar kirmaydi.

Agar notijorat tashkilotlari tadbirkorlik faoliyati orqali daromad oladigan bo'lsalar ushbu daromadlari soliqqa tortiladi.

Sof tushum byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi bo'lib hisoblanadi.

Mazkur soliq turi bo'yicha sof tushum byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi bo'lib hisoblanadi.

Soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan baza quyidagilar mansubdir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz tahminoti korxonalari uchun - mahsulotlarning, ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i va tegishli issiqlik tahminoti korxonalari uchun issikdik quvvatining, suv tahminoti korxonalari uchun suvning, gaz tahminoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tanglangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, tahrirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv

va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun - o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, tahmirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va to'shiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi haq summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun - tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sugurta tashkilotlari uchun Soliq Kodeksning 148 va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Soliq to'lovchilar turlicha soliq solish ob'ektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish ob'ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishlari va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda byudjetda' tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashlari shart.

Mazkur majburiy ajratma bo'yicha kalendar yil soliq davri bo'lib hisoblangan holda hisobot davri esa mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun - yil choragi, mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydig' soliq to'lovchilar uchun - bir oy qilib belgilangan.

Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan ia belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Ushbu majburiy ajratma bo'yicha hisob-kitob soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan esa har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda taqdim etiladi va to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

5. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar va yig'imlar

Mazkur to'lov soliq qonunchiligida 2 xil ko'rinishda undiriladi.

1) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;

2) Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar.

Yuridik shaxslar hamda oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs - yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchilardir.

SHu o'rinda notijorat tashkilotlar, yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar, ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobilg' yo'llarini saqlash, tahmirlash, rekonstruktsiya qilish va qurish bo'yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlar qismi bo'yicha Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lamaydilar.

Notijorat tashkilotlari tadbirkorlik faoliyatidan daromad olsalar, daromadlar bo'yicha imtiyoz qo'llanilmaydi.

SHuni qayd etish lozimki, sof tushum Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi bo'lib hisoblanadi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi:

-kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz tahminoti korxonalari uchun - mahsulotlarning, ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i va tegishincha issiqlik tahminoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv tahminoti korxonalari uchun suvning, gaz tahminoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

-qurilish, qurilish-montaj, tahmirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun - o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-

montaj, tahrirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;

-vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va to'shiriqlik shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi pul mukofoti summasi;

-savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun - tovar oboroti;

-kredit va sug'urta tashkilotlari uchun - Soliq Kodeksining 148 va 150-moddalariga muvofiq aniqlanadigan daromad;

-asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi bo'lib hisoblanadi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, soliq to'lovchilar turlicha soliq solish ob'ektlariga ega bo'lsa, ular soliq solish ob'ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishlari va tegishli ob'ektlar uchun belgilangan stavkalardai kelib chiqqan holda Respublika yo'l jamg'armasiga majburan ajratmalarni to'lashlari shart.

Ushbu majburiy ajratma bo'yicha kalendar yil soliq, davri bo'lib hisoblanadi.

Hisobot davri esa, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun - yil choragi; mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun esa bir oy bo'lib hisoblanadi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi hamda hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi tartibda taqdim etiladi:

-mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot to'shiriladigan muddatda taqdim etiladi hamda ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.

Amaliyotda Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar undirish tartibi mavjud. Unga avtotransport vositalarini olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im hamda chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun olinadigan yig'imlar kiradi.

Avtotransport vositalarini oluvchi va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga o'shuvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar.

SHuningdek chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki undan foydalanuvchilar ushbu vositalarning Respublika hududiga olib kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Respublika jamg'armalariga yig'imlar uchun soliq solish ob'ektini aniklab olish muhimdir.

Avtotransport vositalarini olish va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish hamda chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranziti soliq solish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

SHuningdek olingan va O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati hamda Respublika hududiga kirgan va uning hududidan tranzit tarzida o'tgan chet davlatlarning avtotransport vositalari ham soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Mazkur yig'im bo'yicha imtiyozlar tizimi amal qilib, unga ko'ra avtotransport vositalarini olish va Respublika hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

-ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

-ixtisoslashtirilgan savdo tarmog'idan Respublikada ishlab chiqarilgan yangi avtomobilg' oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;

-umumiy foydalanishdagi avtomobilg' yo'llarini saqlash, tahrirlash, rekonstruktsiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jalik boshqaruv' organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar - mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtotransport vositalari bo'yicha;

-faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziya ega avtotransport korxonalari - yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (engil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari);

-yuridik shaxslar - 40 tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

-homiylilik yordami sifatida avtomobillarni sotib olgan bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab - internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari kabilar.

Avtotransport vositalarini olinganlik va Respublika hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular Respublika Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdats o'tkazilayotganda:

-avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, tekin berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqikdanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

-avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

-avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda;

-avtotransport vositalari Respublika hududiga vaqtinchalik olib kirilgan hollarda undiriladi.

Avtotransport vositalarini olish va Respublika hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

CHet davlatlar avtotransport vositalari Respublika hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi Respublika hududiga kirayotganida undiriladi.

6. Soliq to'lovchilarning ayrim faoliyat turlariga soliq solish xususiyatlari

Mazkur uslubiy qo'llanma doirasida soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi yo'nalishlarga ham alohida ehtibor qaratilgan. SHunga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar uchun ayrim soliqdar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi. To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar deyilganda chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining doimiy ravishda chet elda yashovchi fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, chet ellik nodavlat yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar tushiniladi.

Ular qonun hujjatlariga asosan kiritilgan investitsiya hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, mol-mulkiga solinadigan soliqni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini, yagona soliq to'lovini, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashdan muayyan muddatga ozod qilinadilar.

To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi soliq to'lovchilarga soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar qo'llanilishi nazarda tutilgan. Unga ko'ra:

-ortiqcha ishchi kuchlari mavjud bo'lgan mintaqalar va qishloq aholi punktlarida joylashgan yuridik shaxslar;

-chet ellik investorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar O'zbekiston Respublika-sining kafolatisiz holda amalga oshirilsa;

-yuridik shaxsning ustav ka'italida xorijiy ishtirokchilarning ulushi kamida 50 foizni tashkil etganda;

-yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar kiritilganda;

-xorijiy investitsiyalar erkin almashtiriladigan valyuta yoki yangi zamonaviy texnologik asbob-uskuna tarzida kiritilganda;

-solliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berilganligi natijasida ushbu imtiyozlarning qo'llanilish muddati mobaynida olingan daromadlar yuridik shaxsni yanada rivojlantirish maqsadida qayta investitsiyalashga yo'naltirilganda mazkur imtiyozlar qo'llaniladi.

Agar solliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyoz olgan yuridik shaxs imtiyozlar muddati tugagandan keyin bir yil o'tmasdan faoliyatini to'xtatsa, chet ellik investorni shi foydasini o'z mamlakatiga o'tkazish va ka'italini chet elga olib chiqib ketish faqat solliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning summolari byudjetm undirilgandan keyingina amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsni tashkil etgan holda va tashkil etmasdan tuzilgan dehqon xo'jaliklari zimmasiga solliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan. Solliq Kodeksiga asosan dehqon xo'jaliklari:

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun solliq;
- jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solliq;
- davlat boji;
- avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'implarni to'laydilar. SHuningdek, ular byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini ham to'lovchisi bo'lib hisoblanadilar.

Dehqon xo'jaligi a'zolari qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish, o'zlari yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat bilan shug'ullangan taqdirda, ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishlari hamda qat'iy belgilangan solliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashlari shart bo'lib hisoblanadi.

Solliqqa tortish munosabatlarida bozorlar faoliyatini tartibga solish va bozorlarni solliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ham alohida ahamiyatga ega. Chunki bozorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxs sifatida amal qiladi hamda o'z faoliyati doirasida patta to'lovi va boshqa tushumlar tarzida daromad manbaiga ega bo'ladi.

Patta to'lovi bozorlar faoliyatida ularni rivojlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bozorlarning to'laqonli harakat qilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishning muhim moddiy asosi bo'lib hisoblanadi. Bozorlarda patta to'lovini savdo-sotiq bilan shug'ullanib, o'zlarining tovarlari, buyumlari va qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydi.

Patta to'lovi har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva mol uchun undiriladigan qat'iy belgilangan to'lovdir.

Jismoniy shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasiga binoan savdo joyi uchun ijara haqi to'lanadigan bo'lsa, patta to'lovi summasi ijara haqi tarkibiga kiritiladi.

Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pul olib, unga bir vaqtning o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki kvitantsiya berish orqali undiriladi.

patta to'lovini o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning miqdorlari mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari tomonidan belgilanadi.

Bozorlar daromaddari patta to'lovidan tashqari ular tomonidan olinadigan boshqa tushumlar orqali ham shakllanadi. Xususan, bozor hududida joylashgan va ularning tasarrufida bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlarni ijaraga berishdan olingan tushumlar, sotuvchi va xaridorlarga xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlar, dehqon bozorlari uchun qishloq xo'jalik tovarlarini tayyorlash, xarid va realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar kabilar boshqa tushumlar tarkibiga kiradi. Yer maydonlari ijaraga berilganda yer uchastkalari uchun ijara haqining summasi yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkasidan kam bo'lmasligi va ushbu joy uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorining uch baravaridan ko' bo'lmasligi kerak.

Bozorlarga solliq solish tartibiga ko'ra patta to'lovi va boshqa tushumlar bo'yicha olingan daromadlardan solliq Kodeksida nazarda tutilgan solliq va boshqa majburiy to'lovlar undirilmaydi.

Ammo, bozorlar zimmasida to'lov manbaida solliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha majburiyatlar hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga ayrim to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi.

Xususan, bular jumlasiga boj to'lovlari, yagona ijtimoiy to'lov, davlat boji, tovarlarni ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar, avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'implar kiradi.

Bozorlar daromadlarining tegishli tarzda 50 foizi mahalliy byudjetga, qolgan 50 foizi bozor ixtiyorida qoladi. Bozorlar ixtiyorida qoladigan daromadlardan joriy harajatlarni qo'lash, rekonstruktsiya qilish, obodonlashtirish, bozorlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning ro'yxatini kengaytirish, sifatini yaxshilash maqsadlarida foydalaniladi.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlari bilan bozorlar shug'ullansa, bunday faoliyatdan olingan daromadlarga qat'iy belgilangan soliq solinadi. Masalan, bozorlar atrofida joylashgan avtomobillarni vaqtincha saqlash joylari uchun qat'iy belgilangan soliq qo'llaniladi.

Gastrol-kontsert faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish bilan bog'liq masalalar ham Soliq Kodeksida o'z aksini to'gan. Ma'lumki mazkur tartibda beriladigan litsenziya asosida faoliyat yuritadilar va o'z faoliyatlari doirasida belgilangan stavka bo'yicha davlat boji to'laydilar.

Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi yuridik shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha Soliq kodeksida belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlardan ozod etiladi. Ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar zimmasida bojxona to'lovlari, yagona ijtimoiy to'lov, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar, avtotransport olib kirganlik uchun yig'im kabilarni to'lash majburiyati saklanib qoladi hamda tadbirkorlar uchun nazarda tutilgan tartibda byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'laydilar.

Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun davlat boji to'lovchi jismoniy shaxslar mazkur faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliq to'lashdan ozod etiladilar. Ammo ular zimmasida bojxona to'lovlari; avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'imlarni to'lash majburiyati saklanib qoladi. SHuningdek, ular soliq solinadigan mol-mulk yoki yer uchastkasiga ega bo'lsalar, jismoniy shaxs sifatida mol-mulk va yer solig'ini to'lashlari kerak bo'ladi.

Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlarga soliq solish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida faoliyatni advokatlar tomonidan xizmat ko'rsatish bilan bog'liq qismi bo'yicha soliq va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan ozod etiladilar. Ammo, bojxona to'lovlari, yagona ijtimoiy to'lov, avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik uchun yig'im kabilarni to'laydilar.

Agar ular tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda yuridik shaxslar kabi tadbirkorlar uchun to'lanadigan tartibda soliq va boshqa majburiy to'lovlarni to'laydilar.

Advokatlar tomonidan yuridik xizmat ko'rsatganlik uchun olingan gonorarlar summalari belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga tortiladi. Aynan advokatlar oladigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ob'ektidir.

Advokatning daromadi u tomonidan yuridik xizmat ko'rsatganlik uchun olingan summa bilan advokatlar xayhatlari, advokatlik firmalari va advokatlik byurolarini saklab turish uchun o'tkazilgan mablag'lar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniklanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. Toshkent, «O'zbekiston», 2009 yil.
2. Q. Yahyoev. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti. Toshkent, 2000 y.
3. A. Yuldashev. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanmasi. Toshkent-2007 y.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Toshkent-2008 y.
5. O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjet parametrlari. PQ-2900-son qarori. Toshkent-2013 y.
6. Davriy nashrlar. «Soliq va bojxona xabarlari», «Soliq-info», «Iqtisodiyot va soliq» gazetalari.
7. Soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari. Nazariy, o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2003 y.
8. O. Abduqahhorov, A. Karimov. O'zbekistonda soliq tizimining asoslari. Namangan, 2001 y.
9. Abduqahharov O, Djouraboev Sh, Abdullayev Z. "Soliqlar va soliqqa tortish" Uslubiy qo'llanma. Namangan-2010. 164b.
10. Shamsutdinov F.Sh., Shamsutdinova Sh.F.. "Chet mamlakatlar soliq tizimi" darslik. Toshkent-2010.